

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SAMANDAROVA SOJIDA FURQAT QIZI

**TOMAS HARRIS ASARLARIDA QAHRAMON
BADIY PSIXOLOGIZMI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Samandarova Sojida Furqat qizi

Thomas Harris asarlarida qahramon badiiy psixologizmi.....3

Самандарова Сожида Фуркат кизи

Художественный психологизм героя в произведениях Томаса
Харриса.....31

Samandarova Sojida Furqat qizi

Character’s Artistic Psychologism in Thomas Harris’s works.....61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SAMANDAROVA SOJIDA FURQAT QIZI

**TOMAS HARRIS ASARLARIDA QAHRAMON
BADIY PSIXOLOGIZMI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4599 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ruzmatova Dilnoza Ramatjanovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sadiqov Zohid Yakubjanovich

filologiya fanlari doktori, professor

Nasriddinov Dilshod Azamkulovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «4» aprel kuni soat 12⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1164 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «19» mart kuni tarqatildi.
(2025-yil «19» mart da 3 raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signatures in blue ink]

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, ped. f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX-XXI asr jahon adabiyotshunosligida badiiy psixologizmni va asarlardagi qahramonlarning ruhiy olamini yangicha yondashuvlar asosida ochib berish orqali tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Adabiyotda nisbatan yangi janr bo'lgan psixologik triller romanlarning o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy va adabiy-estetik ahamiyatini psixologizm tamoyillari bo'yicha biografik, sotsiologik, psixologik usullar asosida o'rganish zamonaviy adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, ular bo'yicha bildirilgan ilmiy-nazariy qarashlar va masalalarni yaxlit ilmiy-nazariy tadqiq etish o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy psixologizmni biografik, psixologik, sotsiologik, tarixiy-madaniy va germevtik metodlarga xos tamoyillar asosida tahlil etish fanning muhim vazifasi hisoblanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida psixologik metod shakllangan bo'lishiga qaramasdan, globalizatsiyadagi novatorlik ustuvorligi asosida zamonaviy adabiyotshunoslikda ham badiiy psixologizm tamoyillari vositasida asarlarni tekshirish yetakchi tahlil usuli sifatida adabiyotshunos munaqqidlar tomonidan tavsiya qilinmoqda. Badiiy asarning lisoniy va uslubiy go'zalligi bilan bir qatorda obrazlar ruhiyati, qahramonlar tabiati, ichki kechinmalari ham tasvirlanganidagina mukammallik kasb etadi. Zero, har qanday adabiyot mahsuli, avvalambor, yuksak badiiyat namunasi, hayotning hamda insonlar turmush tarzi va ma'naviyatining ko'zgidir. Shu ma'noda psixologik triller asarlarning takomili va ulardagi qahramon badiiy psixologizmi singari muammolar bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borib, ilmiy baho berish va xulosalar chiqarish badiiy psixologizmda qahramon ruhiy holati hamda uning badiiy talqini, xususan, amerikalik psixologik triller ustasi Tomas Harrisning ijodi haqida butun dunyo ilmiy hamjamiyatini xabardor etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm, qahramonlar ruhiyati tahlili kabi mavzular bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, biroq ayni hodisa psixologik triller¹ janri doirasida hanuzgacha maxsus tadqiq etilmagan. Zero, Amerika va Yevropa adabiyotiga xos ushbu janrda ham badiiy obrazlarning ruhiy olami yetakchi o'rin tutadi. Badiiy psixologizm, qahramonlarning ruhiy tahlili borasida olib borilgan tadqiqotlarda urg'u, asosan, ushbu tushunchalarning ilmiy-nazariy kriteriyalariga, tarixiy shaxslar ruhiyatiga qaratilgan bo'lib, badiiy psixologizmning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, o'tkir syujetli romanlarda badiiy talqinning psixoanalitik tahliliga hamda kasb biografiyasiga qaratilgan tadqiqotlarning soni va ko'lami yetarli darajada emas. Adabiyotshunoslik ilmiga kiritilayotgan yangiliklar, vujudga kelayotgan yangi janrlar va asarlarni o'rganish, tahlil qilish har jihatdan muhimdir. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda qahramon badiiy psixologizmi masalasini Tomas Harrisning tetralogiyasi misolida alohida o'rganish o'rinli, deb hisoblaymiz.

¹ "Triller" atamasi inglizcha "*thrill*" – "hayajon, zavq" ma'nolarini anglatuvchi so'zdan olingan bo'lib, badiiy adabiyot va kinoga xos janrdir. O'quvchida xavotir, hayajon va vahima kabi hislarni uyg'otuvchi asar triller sifatida xarakterlanadi.

Manba: Murphy B. The encyclopedia of murder and mystery. – New York: St. Martin's Minotaur, 1999. – P. 486.

Respublikamizning dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi sharofati bilan so‘nggi yillarda ilmiy-adabiy tafakkur yangilanib, ilm-fan va ta‘lim taraqqiyotiga qaratilayotgan e‘tibor kuchaymoqda. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, *“Biz mutafakkir zotlarning: “Davlatning vazifasi insonlarni baxtli-saodatli qilishdir. Bu maqsadga esa ilm va yaxshi axloq yordamida erishiladi”, degan hikmatli so‘zlarini o‘zimiz uchun dastur deb bilamiz. Ma‘lumki, biz bir yil avval taraqqiyotimizning 5 ta asosiy yo‘nalishini belgilab olgan edik. Unda ta‘lim sohasini rivojlantirish birinchi galdagi ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Men doimo ta‘lim, ta‘lim, muallim, muallim, deb ta‘kidlashim bejiz emas. Chunki ta‘limni rivojlantirmasdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta‘limdir”*². Adabiyot ilmida inson ruhiyatining tasviri ahamiyatga molik masalalardan hisoblanib kelingan. Tomas Harris ijodidan o‘rin olgan romanlarda qahramon badiiy psixologizmini tadqiq etish jamiyatimizda badiiy adabiyotning o‘rnini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 28-noyabrdagi “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining 2021-yil 18-yanvardagi “Ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish borasidagi islohotlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha parlament va deputatlar nazoratini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Psixologik triller janrida yaratilayotgan asarlarga nisbatan ehtiyoj, ayniqsa, so‘nggi yillarda orta boshlaganligi ushbu yangi janr namunalarining badiiy psixologizm tamoyillari asosida jahon va O‘zbekiston miqyosida chuqurroq ilmiy-amaliy tadqiq etilishi zaruratini paydo qiladi. Detektiv va gotik uslubdagi romanlarning qahramonlari psixologiyasi to‘g‘risida ham jahon, ham

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6637> [nutq sanasi: 31.08.2023].

respublikamiz adabiyotshunos olimlari u yoki bu darajada so‘z yuritishgan. Lekin shu paytgacha Tomas Harris tetralogiyasi misolida badiiy psixologizmning qahramonlar orqali aks ettirilishi bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borilmagan. Bundan tashqari, yozuvchi trillerlarida XX asr oxiridagi ayollarning ijtimoiy maqomi va o‘zlikni anglab yetishlari nuqtayi nazardan xolisona tahliliy baho berganligi ham mavzuning ahamiyatini oshiradi.

Amerika va ingliz adabiyotshunosligida badiiy psixologizm, qahramonlar ruhiyati masalasi tadqiqi nisbatan ertaroq boshlangan bo‘lib, bu dastavval ko‘proq she‘riy³ asarlar misolida o‘rganilgan. O‘tgan asrning oxiri – yangi asr boshlarida adabiyotshunoslikdagi boshqa masalalar singari badiiy psixologizm tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy asarlar ham vujudga kela boshladi. Shu ma’noda Tomas Harrisning ijodi ham adabiyotshunoslarni o‘ziga jalb etib kelmoqda va hech bir asari e‘tibordan chetda qolgan emas. Uning psixologik trillerlarini, qolaversa, badiiy psixologizm va psixologik tahlil muammosini yaqindan o‘rganib, tadqiqot olib borgan olimlar qatoriga Ali Karim, Benjamin Szumskyj, Christopher Pittard, David Mana, David Sexton, Glover David, James Patterson, John Goodrich, Michelle Leigh Gompf, Peter Messent, Philip A.Ellis, Philip L.Simpson, Rene Wellek, Austin Warren, Stephen Fuller, Tony Magistrale, Tony Williams⁴ singari adabiyotshunoslarni kiritish mumkin. Britaniyaning Nottingem universiteti professori Peter Messent, Portsmut universiteti professori Christopher Pittardlar⁵ tomonidan e‘lon qilingan bir qator ilmiy maqolalar va esselarda Tomas Harris asarlaridagi qahramonlar psixologiyasi tadqiqi alohida e‘tiborga olingan. Shu o‘rinda Tomas Harrisning ijodini jinoiy fantastika nuqtayi nazardan chuqur o‘rgangan va birinchilardan bo‘lib uning tarjimayi holini hamda asarlarini ilmiy doiralarda yoritib bergan Peter Messentning Harris ijodini jamoatchilikda tanitishdagi xizmati beqiyosligini e‘tirof etish joiz. Uning “American Gothic: Liminality in Thomas Harris’s Hannibal Lecter Novels” (“Amerika gotik

³ Watzlawik M.A Liaison of Poetry and Tattoos: The Multivoicedness in Edgar Allan Poe’s Poem “The Raven”. In O. Lehmann, N. Chaudhary, A.C. Bastos, & E.Abbey (Eds.), *Poetry and imagined worlds*, 2017. pp.3-22.

⁴ Karim A. Hannibal Rising: Look Back in Anger. In *Dissecting Hannibal Lecter: essays on the novels of Thomas Harris*. Ed. Benjamin Szumskyj. McFarnald, 2008. pp.147-159; Szumskyj B. *Dissecting Hannibal Lecter: essays on the novels of Thomas Harris*. Jefferson: McFarland, 2008, 244 p.; Pittard Ch. Psychological Thrillers. In the *Encyclopedia of the Gothic* (eds W. Hughes, D. Punter and A. Smith), 2012.pp.531-534; Mana D. This is the Blind Leading the Blind: Noir, Horror and Reality in Thomas -Harris’s Red Dragon. In *Dissecting Hannibal Lecter: Essays on the novels of Thomas Harris*. Ed.Benjamin Szumskyj. McFarnald, 2008. pp.87-101; Sexton D. The Strange World of Thomas Harris. Short books, 2001,160 p.; Glover D. The thriller. In M. Priestman (ed.), *The Cambridge Companion to Crime Fiction*. Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2003; Thriller: Stories to keep you up all night. Ed.Patterson J. Ontario, Canada: MIRA Books, 2006.576 p.; Messent P. American Gothic: Liminality in Thomas Harris’s Hannibal Lecter Novels. *Journal of American & Comparative Cultures*, Vol.23 (4), 2004. pp. 23-35; Gompf M. Thomas Harris and William Blake: Allusions in the Hannibal Lecter Novels. McFarland Company, 2013, p. 184; Simpson P. Gothic Romance and Killer Couples in Black Sunday and Hannibal. In *Dissecting Hannibal Lecter: essays on the novels of Thomas Harris*. Ed.Benjamin Szumskyj. McFarnald, 2008. pp.49-67.; Simpson P. Making Murder: The Fiction of Thomas Harris. Bloomsbury, 2010. p.372; Wellek R, Warren B. *Theory of Literature*. –Boston: Mariner Books, 1984.375 p.; Fuller S. Deposing Cultural Totem: Clarice Starling and Postmodern Heroism in Thomas Harris’s Red Dragon, The Silence of Lambs, and Hannibal. *The Journal of Popular Culture*, 2005. pp.819-833; Magistrale T. A Dark Night’s Dreaming: Contemporary American Horror Fiction (Understanding Contemporary American Literature). University of South Caroline Press, 1996.p.141; Williams T. From Red Dragon to Manhunter. In *Dissecting Hannibal Lecter: essays on the novels of Thomas Harris*. Ed. Benjamin Szumskyj. McFarnald, 2008. pp.102-117.

⁵ Messent P. American Gothic: Liminality in Thomas Harris’s Hannibal Lecter Novels. *Journal of American & Comparative Cultures*, Vol.23 (4), 2004. pp.23-35; Pittard Ch. Psychological Thrillers. In the *Encyclopedia of the Gothic* (eds W. Hughes, D. Punter and A. Smith), – New Jersey: *John Wiley & Sons*, 2012. pp. 531-534.

adabiyoti: Tomas Harrisning Gannibal Lekter haqidagi romanlarida cheklanganlik”) nomli tadqiqot ishida Harrisning jinoyatchining psixologik portretiga qiziqishi ortidan yaratgan romanlari orqali jinoiy fantastikaning an’anaviy rivoya usullari doirasidan chiqqan holda jinoyatchining o‘tmishiga nazar solish, qilmishlarga olib kelgan sabablarga bilvosita va bevosita ishora qilish yo‘lidan ketib, psixologik triller janri taraqqiyotiga tamal toshini qo‘yganligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Rus adabiyotshunosligida tadqiqot ishimizning nazariy masalasi bo‘lmish qahramon badiiy psixologizmi masalasi va u bilan bog‘liq tadqiqotlarning takomillashuvida esa N.G.Chernishevskiy, V.Plexanov, G.Gegel, F.Shelling, M.Baxtin, L.Ginzburg, A.Yesin, A.Iezuitov, A.Potebnya, D.Ovsyaniko-Kulikovskiy, O.Lebedova, T.Dayakovalarning⁶ ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy psixologizmni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etgan rus adabiyotshunos olimi Andrey Yesin badiiy asarlarda insonning ichki olami tasviri berilishi borasida dastlab cheklovlar va nomukammaliklar mavjud bo‘lganini e’tirof eta turib, psixologizmning asosini tashkil etuvchi badiiy-g‘oyaviy xususiyatlarga yetarlicha e’tibor qaratilmaganini ta’kidlaydi. Shuningdek, L.Zabrotskaya, T.Krasavchenko⁷ singari adabiyotshunoslar o‘z ilmiy tadqiqotlarida Tomas Harrisning ijodini gotik romanlar nuqtayi nazaridan qisman tadqiq etib, uning psixologik detektivni g‘ayritabiiylik unsurlari bilan boyitib, unga mutlaqo yangicha tipdagi maxluq – seriyali qotil ruhidagi psixopatni olib kirganini ta’kidlashgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham badiiy asarda psixologizm muammosi bo‘yicha muayyan darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilib, tajribalar to‘plangan. Badiiy psixologizm tadqiqiga teran e’tibor qaratilgan davr XX asrning 40-yillar so‘ngigiga to‘g‘ri kelsa-da⁸, ushbu mavzuning keng miqyosda o‘rganilishi 60-70-yillarda⁹ kuzatiladi. Bugungi kunga kelib, o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm masalalari bilan bog‘liq bo‘shliq dissertatsiyalar hamda maqolalar orqali ham nazariy,

⁶ Chernishevskiy N.G. Tanlangan adabiy–tanqidiy maqolalar. –Toshkent: O‘zdamnashr, 1956; Плеханов В. Г. Литература и эстетика, в 2–х томах, т. I. ГИХЛ. 1958; Гегель Г. В. Эстетика. В 4–х томах (тт. 1–4). Переводчик Б. Г. Столпнери др. М.: Искусство, 1973; Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. –М.: Сов.писател, 1963.//Вопросы литературы и эстетики. –М.: Худ.лит., 1975. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Сов.писател, 1963.//Вопросы литературы и эстетики. –М.: Худ.лит., 1975; Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике. – М.: Художественная литература, 1975; Бахтин М. Литературно-критические статьи. – М.: Художественная литература, 1986; Гинзбург Л. Г. По следам литературных героев (путешествие по стране прототипи) // Русский язык и литература в школах Кыргызстана. 2020. № 4; Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы: кн. для учителя / А. Б. Есин. – М.: Просвещение, 1988; Иезуитов А.Н. Проблема психологизма в эстетике и литературе/ Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: 1970; Потебня А. А. Эстетика и поэтика. — М.: Искусство, 1976. — 616 с.; Овсяннико-Куликовский Д.Н. Литературно-критические работы: В 2 т. М., 1989. Т.2. С.328; Лебедева О. В. Поэтика психологизма в английской новелле конца XIX века // Сибирский филологический журнал. 2016. №1.; Дьякова Татьяна Владимировна Характеристика жанра «Триллер» и его поджанры // Lingua mobilis. 2013. №5 (44).

⁷Заброцкая Л. В. Чиллер и триллер в составе жанровой системы формульной литературы // Молодежный сборник научных статей «Научные стремления». 2017. №22. / Красавченко Т. Н. Английская литературная критика XX века / РАН ИНИОН. –М., 1994. - 282 с. - би-блиогр. : С. 250-272.

⁸ Alimhammedov A.A. Qahhor hikoyalarda psixologik tasvir // Sharq yulduzi, 1947.

⁹ Каримов Э. Человек в изображении Льва Толстого. – Т.: Фан, 1967; Bekmurodov Y. Hozirgi o‘zbek romanlarida psixologizm problemi. Filol. fan. nom. ... diss. – Samarqand, 1973. Shodiyev N. Abdulla Qahhorning psixologik tahlil mahorati: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1973; Shermuhamedov P. Ruhiiy olam ko‘zgusi. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. –Toshkent, 1976; Abdurahmonova M. Abdulla Qodiriy ijodida psixologik tasvir mahorati: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1977;

ham tahliliy jihatdan to'ldirilmoqda¹⁰. H. Umurov milliy romanchilikda, A.Xolmurodov esa qissachilikda badiiy psixologizmning namoyon bo'lishini maxsus tadqiq qilishgan. Badiiy psixologizm masalasi so'ngi yillarda U.Ko'chimov, R. Tulabayeva, N.Qobilova va Sh.Botirovalarning doktorlik dissertatsiyalarida o'zbek va jahon adiblari asarlari qiyosi nuqtayi nazardan o'rganilgan. Badiiy psixologizmning fantastik asarlardagi tadqiqi bo'yicha ish olib borgan Ulug'bek Ko'chimov Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxovning qator asarlari misolida qahramon ruhiyatini tasvirlashdagi mushtarakliklar va o'ziga xosliklarni, shu jumladan, ayol obrazi va uning ruhiyati tasvirini yaratish borasidagi umumiyliklarni aniqlashga erishgan. E'tiborli jihati shundaki, badiiy psixologizmning ilmiy-nazariy asoslari U.Ko'chimovning dissertatsiyasida nisbatan teranroq ochib berilgan. Tadqiqotimizda, shuningdek, boshqa bir amerikalik adib Jek Londonning "Martin Iden" va o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning "Sarob" romanlari asosida har ikkala yozuvchining badiiy psixologizmdan foydalanish mahorati, uslubi va romanlardagi psixoanalitik hodisalar tahlilini amalga oshirgan Nargiza Qobilovaning, zamonaviy o'zbek romanlarida badiiy psixologizmi Xudoyberdi To'xtaboyev, Ulug'bek Hamdam romanlari misolida yoritib bergan Ruxsora Tulabayeva va Shaxlo Botirovalarning ilmiy ishlariga tayanildi.

Badiiy psixologizm bo'yicha adabiyotshunoslikda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, qahramon badiiy psixologizmi Tomas Harris asarlari misolida ilmiy-nazariy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Angliya va Amerika adabiyoti tarixi hamda dolzarb masalalari, badiiy tahlil usul va tamoyillari ustuvor ilmiy yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Tomas Harris romanlaridagi qahramon badiiy psixologizmining mazmun va shakliy xususiyatlarini tahlil qilish, ijodkorning badiiy va tarixiy haqiqat hamda badiiy makon va zamoni tasvirlash mahoratini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

badiiy psixologizmning psixologik trillerdan o'rin olgan qahramonlar ichki dunyosi va ruhiyatini ochib beruvchi vosita sifatidagi shakllarini, namoyon bo'lish

¹⁰Umurov H. Psixologizm problemi va o'zbek romani: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 1983; Quronov D.H. Cho'lonning "Kecha va kunduz" romanida xarakterlar psixologizmi: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1992; Salayev F. Hozirgi o'zbek ilmiy fantastik adabiyotida inson va tabiat muammolari Filol. fan. nom. diss. – Toshkent, 1993; Aliyev B. Hozirgi o'zbek she'riyatida psixologizm muammosi (70–80 yillar): Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1994. Isayeva Sh.B. O'zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2001; Jumaboyeva J. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2004; Umirzoqova N. T. Usmon Nosir she'riyatida ruhiyat tasviri: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2005; Umurov H. O'zbek romanchiligida badiiy psixologizm. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. ; Лиходзиевский А.С. Типология Американского комического романа XIX века. Автореф. дисс. д-ра. филол. наук–Т.: 2007; Камалова С.Э. Нравственно- психологический искания в художественной литературе 70-90-х годов XX века(на материале произведений В.Распутина и А.Якубова). Дисс.канд. филол.наук. – Т., 2008; Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016; Botirova Sh. Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida) Filol. fan. fal. dok. dis. –Qarshi, 2019; Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik.– Toshkent: Mumtoz so'z, 2020; Tulabayeva R. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida badiiy psixologizm. Filol. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2019; Qobilova N. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. Filol. fan. fal. dok. dis. Buxoro, 2020; Ko'chimov U. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi (Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov ijodi misolida). Filol. fan. fal. dok. dis. –Toshkent, 2021.

usullari va yoʻsinlarini oʻrganib, ahamiyatini belgilash;

psixologik triller janrining vujudga kelish sharoitlari va tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini ilmiy-tasnifiy yoʻsinda asoslash;

badiiy zamon va makonlarning tasvir usullarida poetik vositalardan foydalanishning, shuningdek, tush va urush xronotoplarining yozuvchi badiiy niyatining ochishdagi ahamiyatini baholash;

ayollarning ijtimoiy maqomiga oid bahsli muammolar va jamiyatda mavjud stereotiplarning Harris qahramonlari taqdirida aks etgan jihatlarini tekshirish;

yozuvchi shaxsiyati va maʼnaviy dunyoqarashining oʻziga xos xususiyatlarini uning uslubiyatida aks etish yoʻllarini Tomas Harris asarlari misolida yoritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Tomas Harrisning “Qizil ajdarho”, “Qoʻzichoqlar sukunati”, “Gannibal” va “Gannibal: yuksalish” nomli psixologik triller romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Tomas Harrisning romanlaridagi qahramon badiiy psixologizmi konsepsiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada biografik, psixologik, sotsiologik, tarixiy-madaniy va germenevtik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zamonaviy adabiyotshunoslikda yuzaga kelgan psixologik triller janr poetikasi va qahramonlar ichki dunyosini yoritish mezonlari Amerika adibi Tomas Harris tetralogiyasiga xos janriy xususiyatlar badiiy tahlil sinteziga koʻra takomillashtirilgan;

Tomas Harris romanlarida muallif – roviy – personaj munosabatlari muallif gʻoyasining mantiqiyiligi, ijodiy fantaziyasining kengligi hamda isteʼdod mezonining mehnat, saviya, shaxsiyat va sharoit maromlari bilan yaxlitlik kasb etishi badiiy tahlil vositalari misolida isbotlangan;

xarakter, voqelik, vaziyat, ichki monolog, konflikt, verbal va noverbal holatlar negizida yuzaga chiqqan psixologik xronotop asosida obraz tasvirini umumlashtirish va tipiklashtirish qobiliyati ishonarlilik maromining badiiy-estetik tamoyillari orqali shakli va mazmuniy xususiyatlarga koʻra badiiy-konseptual yaxlitlikda dalillangan;

psixologik trillerda tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishda yozuvchi adabiy aholisini obrazli shakllantirishi, xususan, asar bosh qahramonlarini prototiplar negizida yoritish orqali *izquvar*, *qotil*, *jabrlanuvchi*, *guvoh* va *maslahatchi* kabi personajlarning tipik kategoriyasi tasniflangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

badiiy psixologizmning muhim xususiyatlarini tahlil va tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy tushunchalar berishi, adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tili oʻrganilayotgan mamlakat zamonaviy adabiyoti kabi fanlardan yaratiladigan darslik va oʻquv qoʻllanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

psixologik trillerlarda badiiy psixologizm va psixologik tahlil tushunchalari, shuningdek, psixologizmning poetik tasvir vositalari hamda yozuvchi biografiyasining asarda aks etishi masalasi romanlardan olingan misollar orqali batafsil yoritib berilgan;

Harris ijodi xronotop adabiy-estetik kategoriyasi doirasida oʻrganilib, badiiy makon va zamonning tasviri asar syujetini mustahkamlashda muhim vosita ekanligi

aniqlangan;

Harrisning badiiy qahramonlar ruhiyatini yoritishdagi uslubiy va epik mahorati xususiyatlarini asarlarda qoʻllanilgan uslubiy birliklar orqali tahlil etish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi masalaning aniq qoʻyilganligi, nazariy maʼlumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning biografik, psixologik, sotsiologik va germenevtik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikrlar, tavsiyalar va xulosalarning respublika hamda xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplamlari, Oliy attestatsiya komissiyasi roʻyxatidagi maxsus jurnallarda chop etilgan maqola va tezislardan orqali amaliyotga joriy etilganligi, qoʻlga kiritilgan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ayni ilmiy-nazariy yoʻnalishdagi ilmiy asarlar yozishda, psixologik triller janriga xos belgi-xususiyatlarni, uning tadrijiy taraqqiyotini qayta tahlil etishda, ulardagi qahramon badiiy psixologizmi, makon va zamonning tasviriy usullari, asarlarda tarixiy va badiiy haqiqatning ifodalanishi singari masalalarga ilmiy xulosalarni yaratishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan nazariy umumlashmalardan, shuningdek, tadqiqot yuzasidan eʼlon qilingan adabiy-ilmiy manbalardan “Tili oʻrganilayotgan mamlakatlar adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi”, “Jahon adabiyoti tarixi”, “Amerika adabiyoti” singari adabiyotga va adabiy jarayonlarga bagʻishlangan maxsus kurs va seminarlar oʻtishga, darslik va qoʻllanmalar yaratishga, adabiyotshunoslikka oid lugʻatlar, tavsiyanomalar va yoʻriqnomalar ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tomas Harris asarlarida qahramon badiiy psixologizmining, badiiy va tarixiy haqiqatning ifodalanish usullarini tahlil qilish va psixologik triller janrining ilmiy-nazariy asoslarini rivojlantirish jarayonida olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

zamonaviy adabiyotshunoslikda yuzaga kelgan psixologik triller janrining poetikasi, qahramonlar ichki dunyosining mahorat bilan ochib berilishi mezonini negizida Amerika adibi Tomas Harris tetralogiyasiga xos janriy xususiyatlarning badiiy tahlil sintezi takomillashtirilganiga oid ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima boʻlimi faoliyatida foydalanilgan (Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 15-fevraldagi 01-03/187-son maʼlumotnomasi, “Yang asr avlodi” nashriyot-matbaa markazining 2024-yil 16-fevraldagi maʼlumotnomasi). Natijada Harris tetralogiyasi birinchi va ikkinchi qismining oʻzbek tilidagi tarjimasini amalga oshirilgan;

Tomas Harris romanlarida muallif – roviy – personaj munosabatlari muallif gʻoyasining mantiqiyliigi, ijodiy fantaziyasining kengligi hamda isteʼdod mezonining mehnat, saviya, shaxsiyat va sharoit maromlari bilan yaxlitlik kasb etishi borasidagi xulosalardan Xitoy Xalq Respublikasidagi Baodin universitetida yaratilgan “Amerika adabiyoti” darsligining “XXI asr adabiyoti” qismini yozishda foydalanilgan (Xitoy Xalq Respublikasi Baodin universiteti Xorijiy til taʼlimi va xalqaro biznes fakultetining

2024-yil 30-martdagi 202403-19-son ma'lumotnomasi). Natijada darslik mazmun-mohiyati Tomas Harris ijodi va psixologik triller janrining badiiyatiga oid nazariy ma'lumotlar asosida boyitilgan;

xarakter, voqelik, vaziyat, ichki monolog, konflikt, verbal va noverbal holatlar negizida yuzaga chiqqan psixologik xronotop badiiy-konseptual yaxlitlikda asoslangan holda ijodkorning obraz tasvirini umumlashtirish va tipiklashtirish qobiliyati ishonarlilik maromining badiiy-estetik tamoyillari orqali shakliy va mazmuniy xususiyatlarga ko'ra dalillangani haqidagi ma'lumotlardan Xitoy Xalq Respublikasidagi Xebey dasturiy ta'minot instituti ingliz tili va adabiyotini o'qitish bo'limi tomonidan asarlarni badiiy tahlil qilish mashg'ulotlarida foydalanilgan (Xitoy Xalq Respublikasi Xebey dasturiy ta'minot instituti Umumiy kurslarni o'qitish kafedrasining 2024-yil 1-apreldagi 05-2404-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni dars mashg'ulotlarida joriy qilish orqali zamonaviy Amerika adabiyotidagi psixologik triller janri an'analari va uning o'ziga xos xususiyatlari borasida talabalarning bilim va ko'nikmalari shakllantirilgan;

psixologik trillerda tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishda yozuvchi adabiy aholisini obrazli shakllantirishi, xususan, asar bosh qahramonlarini prototiplar negizida tasvirlashi asosida *izquvar*, *qotil*, *jabrlanuvchi*, *guvoh* va *maslahatchi* kabi personajlarning tipik kategoriyasi tasniflangani xususidagi mulohazalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Britaniya Kengashi (British Council) ko'magida amalga oshirilgan 1683580 raqamli "English as a school subject" hamda Erasmus+ dasturining ICM, KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, 2020-1-UK01-KA107-078419 nomli xalqaro amaliy loyihalarida samarali foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 18-apreldagi 01/225-son, 2024-yil 30-avgustdagi 01/512-son ma'lumotnomalari). Natijada xalqaro loyihalar doirasida yaratilgan yangi avlod o'quv adabiyotlari mazmun-mundarijasiga ko'ra takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya hamda anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 147 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy

natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Psixologik trillerda badiiy psixologizm: uslubiy va shakliy xususiyatlar”** nomli birinchi bobida psixologik triller janrining nazariy tavsifi va ushbu tavsif asosidagi xususiyatlari badiiy psixologizm nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, badiiy psixologizmning namoyon bo'lish usullariga ko'ra tasniflangan.

Psixologiya yozuvchiga qahramonlarning xayolidan nimalar o'tayotganini, ular bajarayotgan xatti-harakatlarni va o'zlarini qanday tutishlarini so'zlar vositasida tasvirlashda yordam beradi. Ruhiyatga Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari, shu jumladan, Aristotel ham alohida urg'u berib, uning ahamiyatini namoyish etishga intilgan, ikkala soha ham insonlar, ularning hayoti, his-tuyg'ulari, o'ylari, munosabatlari, qo'rquvlari, g'am-anduhlari, tashvishlari-yu orzu-istaklarining in'ikoslari ekanini ta'kidlagan, psixologiyani tabiiy falsafaning bir bo'lagi sifatida tavsif etgan. Psixologiya insoniy xulq-atvor hamda uni keltirib chiqaruvchi sabablarni tadqiq qilsa, badiiy adabiyot o'sha xulq-atvorni badiiy yo'sinda ko'rsatib beradi. Jeyn Ostin, Uilyam Shekspir, Lev Tolstoy, Abdulla Qodiriy va boshqa ko'plab buyuk yozuvchi va shoirlar ijodida buning yaqqol isbotini ko'rishimiz mumkin. Ingliz romannavisi va adabiy tanqidchisi Edvard Forsterning *“Badiiy adabiyotning yuksak namunasi – bu uni mutolaa qilayotgan insonni asarni yaratgan insonga aylantirib qo'yishga qodir asardir”*¹¹, degan fikri ham badiiy asardan joy olgan psixologik xususiyat va elementlarning ahamiyati nechog'lik darajada katta ekanligining tasdig'idir.

*“Adabiyot – insonshunoslik bo'lganligi uchun qahramonning tashqi qiyofasi bilan birga uning ma'naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli va ta'sirli qilib tasvirlab berish yozuvchilar oldida turgan eng qiyin, eng sharaflil vazifalardan hisoblanadi”*¹² Dilmurod Quronov badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchining ko'z oldida aniq-tiniq jonlantirish yo'lida xizmat qiluvchi bir qator vositalarni sanab o'tgan bo'lib, ular quyidagilar: muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi va hokazo.¹³ Shular orasida badiiy psixologizm asardagi insonlar obrazini so'zlar orqali yaratish jarayonidagi eng muhim unsurlardandir. D.Quronovning tavsifiga ko'ra, badiiy psixologizm – bu *“personaj ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti-harakatlari, gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi”*¹⁴. Adabiyotda psixologizm muammosini tadqiq etgan rus adabiyotshunos olimi Andrey Ieuzitov “psixologizm” tushunchasining o'zi bir necha ma'no anglatishini ta'kidlay turib, birinchi navbatda unga so'z san'atining turga xos belgisi sifatida, undan so'ng esa “badiiy ijod mahsuli, muallif, uning personajlari va kengroq – jamiyat psixologiyasining ifodasi va aksi” sifatida, shuningdek, “ongli va estetik tamoyilni

¹¹ McDowell F. P. W. “E. M. Forster's Theory of Literature.” *Criticism*, vol. 8, no. 1, 1966, pp. 19–43. *JSTOR*, <http://www.jstor.org/stable/23094237>.

¹² Qodirov P. G'oya va tuyg'u birligi. Til va el. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. –B.248.

¹³ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. –B.31.

¹⁴ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. –B.32.

belgilovchi” omil sifatida qaralishini keltirib o‘tadi.¹⁵

Yozuvchilar qahramonlar ruhiyatini tasvirlashda ikki xil toifaga kiruvchi shakllardan foydalanadi: **ichki** va **tashqi shakllar**¹⁶. *Ichki monolog, ong oqimi, xotira, tush, tasavvur* singari shuurda kechuvchi holatlar orqali yozuvchi o‘quvchining qalbiga kirib boradi, unda xayrixohlik yoki rahm-shafqat, nafrat yoki afsus-nadomat singari insoniy hislarni junbushga keltiradi.

Psixologik talqin negizida, Ummat To‘ychiyev yozganidek, insoniylik, axloq, falsafa, inson ongi takomili yotadi va u soxtalik, loqaydlik, riyokorlik, mahalliychilik, egoizm, amalparastlik, milliy ong qoloqligi, siyosatdan qochishga qarshi kurashda namoyon bo‘ladi. Uni ijtimoiy muhitdan va tabiatdan ayro holda o‘rganib bo‘lmaydi¹⁷. Badiiy psixologik talqinda esa qahramon ruhiy siymosini ochib berish vazifasi muhimroq o‘rin tutadi. Uning yuzaga chiqish vositalaridan biri – bu **ichki monolog** bo‘lib, u har qanday vaziyatda tug‘ilishi mumkin. Tetralogiyadagi ichki monologlarning aksar qismi seriyali qotilni tutish vazifasi yuklatilgan FQB agenti yoki izquvar (Uill Grexem, Kleris Starling) nomidan taqdim etiladi, voqea-hodisalarni mantiqan bog‘lash mobaynida ularning xayolida kechgan o‘ylar va atrofdagilarga nisbatan munosabatini muallif aynan **ichki monolog** yordamida yuzaga chiqaradi. Masalan, “Qo‘zichoqlar sukunati” romanida Kleris Starlingning ichki nutqi orqali psixologizmni namoyon etishi u, asosan, o‘zining xatti-harakatiga baho berganida ko‘zga tashlanadi. Doktor Chiltonning nojo‘ya muomalasidan hafsalasi pir bo‘lganida *“Jin ursin, bu odamning aslida kimligini nega bir qarashda bilib olmading-a? Balki u sen o‘ylagandek bir pulga qimmat odam emasdir, hech qursa ishga doir biror foydali ma’lumotni bilar. Eplay olmasang ham yolg‘ondakam kulib, salgina noz-karashma qilsang, osmon uzilib yerga tusharmidi, Kleris?”*¹⁸ deydi o‘ziga o‘zi. Ushbu satrlar orqali nafaqat Chiltonning, balki Klerisning ham ichki olamiga oyna tutiladi va ulardan birining takaburligi hamda ikkinchisining o‘z “men”iga qarshi ish qila olmasligi, sodiqligi namoyon bo‘ladi. Har bir yozuvchi ijodida psixologizmning bu turi uchraydi va ma’lum bir badiiy vazifani bajaradi.

Boshqa bir o‘rinda Starlingning vaxshiy qotillik qurboni bo‘lgan Kimberliga achinib, uni o‘z singlisidek ko‘rib, uning taqdiridan dahshatga tushgani monolog vositasida ochib beriladi: *“To‘lachadan kelgan marhum Kimberli...Go‘zal ko‘rinish maqsadida quloqlarini teshtirgan, ovqatdan tejab, oyoqlaridagi ortiqcha tuklarni yo‘qotuvchi kremga pul yiqqan va oxir-oqibat o‘likxonada qo‘nim topgan sho‘rlik Kimberli...Bosh terisi sochiga qo‘shib shilib olingan Kimberli...Kimberli, mening baxtiqaro singilginam...Hoynahoy, Ketrin Beyker Martin Kimberliga qiyo ham boqmagan bo‘lardi. Hozir esa ular xuddi opa-singildek, terilari sababli taqdirlari kesishgan opa-singillar. Eh, Kimberli! Mana, u dafn marosimlari byurosida yotibdi, atrofini esa bir to‘da yo‘l-patrul politsiyasi xodimlari o‘rab olgan...”*¹⁹ Klerisning

¹⁵ Иезуитов А.Н. Проблема психологизма в эстетике и литературе/ Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: 1970. – С. 30

¹⁶ Ko‘chimov U. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi (Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov ijodi misolida). Filol. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2021. – B. 14.

¹⁷ To‘ychiyev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – T.: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 438-439.

¹⁸ Harris T. Qo‘zichoqlar sukunati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 14.

¹⁹ Harris T. Qo‘zichoqlar sukunati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 342.

doktor Lekter bilan uchrashuvga oshiqayotgan paytidagi ruhiy holatini ochib berishda muallif yana ichki monologga murojaat etadi: “*Ey Xudo, nega undan javob olishni bunchalik qattiq istayapman-a?*”²⁰//“*Balki, doktor sodir etgan qotilliklar uni mayda qo‘polliklarga betoqat qilib qo‘ygandir yoki mening shunday ahvolga tushganimni ko‘rib, g‘alati bo‘lib ketgandir*”, degan o‘y kechdi Sterlingning xayolidan.// “*Nima bo‘lishidan qat‘iy nazar, vaziyatdan foydalanib qolishim kerak. Ey Xudo!*” Yana bir o‘rinda Starlingning kalavani uchini topish arafasida turib, ikkilanish holati va o‘ziga o‘zi ishonch bildirgani ichki monologda o‘z ifodasini topadi: “*Kleris Starling eng yaxshi kursant, Kleris Starling omadli va xursand. Qani, safsata sotishni yig‘ishtirginda, shu odamga qo‘ng‘iroq qil. Hozir uyida bo‘lsa kerak. Xo‘sh, “Arkanzas shahri, Ditch ko‘chasi, 9-uy” manzili qayerda ekan-a? Jek Krouford hech qachon u yoqqa borishimga ruxsat bermaydi, mayli, hech bo‘lmasa u yerga kimni jo‘natganini bilib olarman*”.²¹ Kleris o‘zi kursant bo‘lishiga va darslardan qolib borayotganligiga qaramasdan Krouford bergan vazifani sidqidildan bajarishga kirishadi.

Yozuvchilar qahramonning ruhiy olamini yoritishda tashqi omillardan, shu jumladan, **imo-ishoralar, yuz-ko‘z ifodasi, ma‘noli xatti-harakatlar yoki psixikaga oid boshqa tashqi unsurlar, xususan, tabiat manzaralari oid tasvir vositalaridan** ham foydalanishadi²². Ruhiy tasvirning ushbu ikki yo‘sini bir-birini taqozo qilganligi va to‘ldirganligi sababli ijodkor yozuvchi qahramon ruhiyati tasviri jarayonida ularning ikkalasiga ham faol ravishda murojaat qiladi. Qolaversa, yozuvchi ruhiyatni ochib berishda tabiatdagi unsurlarning tasviri yoki boshqa bir elementning ishtirokidan ham foydalanishi mumkin.

Badiiy psixologizm qahramonning ichki dunyosiga chuqur kirib borish keng tasvir, uning qalbidagi turli holatlarni tahlil etish, nozik hissiyot va kechinmalarga e‘tibor berish kabi masalalar birlamchi o‘rinda turadi. Psixologizm badiiy adabiyotda *uch asosiy ko‘rinishda*:

1. **Adabiyotning tug‘ma belgisi;**
2. **Muallif psixikasining muayyan ifodasi;**
3. **Muallif tomonidan ongli tanlangan, asar yaxlitligini belgilaydigan estetik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.**

O‘z qahramonlarining psixologik tasvirini ifodalash jarayonida Tomas Harris **ichki monolog, ko‘chirma gapli nutqlar, portretlash, tabiat manzaralari tasviri** hamda **nutqiy tanaffus** singari shakllar hamda usullardan faol foydalanadi. Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy va siyosiy hodisalar hamda faktlarga qahramonlari bildirayotgan munosabatlarni yanada ochiqroq namoyon etish uchun yozuvchi ularni *hissiy taranglik* holatlariga soladi. Mohiyatan “*Qo‘zichoqlar sukunati*” romanidagi salbiy qahramon obrazida aks etuvchi **Gannibal Lekter** sog‘lom fikrlovchi jamiyat tomonidan namunali axloqiy fazilatlarga ega inson sifatida tan olinmaydi, aksincha, unga maxluqdek qarashadi, negaki u o‘zida bizning qalbimizning tund qismini, so‘z bilan ifodalab bo‘lmas istaklarimiz va tasavvurlarimizni o‘zida aks ettiradi. Asarning bosh qahramoni **Kleris Starling** esa FQB akademiyasi kursanti, guruhidagi eng a‘lochi beshtalikning

²⁰ Harris T. *Qo‘zichoqlar sukunati*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 35.

²¹ Harris T. *Qo‘zichoqlar sukunati*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B.48.

²² Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B. 33.

biri, huquqshunoslik bo'yicha ruxsatnomaga ega, qolaversa, Virjiniya shtati universiteti laboratoriyasining sud-tibbiyot ekspertizasi bo'limida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlaydi. Shu bilan birga, u romanda aqlli, to'g'riso'z, o'zgalarning dardiga achinuvchi, maqsadi sari olg'a qadam bosuvchi go'zal ayol suratida tavsiflanadi. Lekter bilan birinchi marta bo'lib o'tgan uchrashuv chog'ida asardagi tub burilish namoyon bo'ladi.

Xronotopning badiiy asarda bajaruvchi asosiy vazifalari qatoriga uning syujetni yaratish, janrlarni xillarga ajratish hamda qahramon obrazini ifoda etishni kiritish mumkin. Shunga monand ravishda badiiy makon ikki qatlamdan iborat bo'ladi, deya faraz qilsak bo'ladi:

- 1) kundalik hayot yoki real hayot;
- 2) mo'jizaviy yoki sehrli makon.

Psixologik trillerda esa ikkala qatlamning ham faol ishtiroki ko'zga tashlanadi: voqealar real hayotda bo'lib o'tadi va jinoyatchi-shizofrenik shaxsiyati ichidagi faqat o'zining xayolida yaratgan makon o'tmish xotiralari bilan bog'liqlikda bolalikdagi psixologik travmalar yuzaga keltirgan makonga aylanadi. Bunga misol qilib tetralogiyaning bosh qahramonlari *Gannibal* va *Klerisning tushlarini* keltirsak bo'ladi. Odatda an'anaviy romanlarda bolalik jannatsimon xronotop kontekstida ta'riflanib (uy, oila), qahramon o'zining badiiy umri davomida shu jannatga qaytishga intiladi. Vaholanki, psixologik trillerda buning aksi kuzatiladi. **Xronotop**ni turli kategoriyalar asosida tasniflash amaliyoti O'.Nazarov hamda B.To'rayevalarning ilmiy ishlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Nazarov yigirmanchi asr milliy romanchiligida xronotopning an'anaviy, yonma-yon (parallel) va sinkretik shakllarini ajratib ko'rsatgan. XX asrning 60-yillarigacha o'zbek romanlarida vaqtning xronologik tartibda tasvirlanishi, voqealarning ma'lum bir vaqt oqimida kechishi va *retrospeksiya* (eslash) yoki qoliplash singari xususiyatlar bilan sifatlanuvchi an'anaviy xronotop ustuvor bo'lib kelgan. XX asrning 70-yillaridan esa badiiy matnlarda bir nechta xronotoplarning badiiy ifoda topishi, bir-biri bilan qorishib ketgan holda namoyon bo'lishi, makon chegaralarining buzilib, asosiy e'tibor qahramon va personajlarning ichki ruhiy olami oqimlariga qaratilishi an'anaga aylandi²³. Adabiyotshunos olim B.To'rayeva xronotopning ham badiiy asar strukturasi boshqa unsurlari singari muallifning olam tasvirini qayta ifodalash shakli ekanligini bayon etish asnosida u badiiy olam haqiqatining turli manzaralarini yaratishda ishtirok etishini, u so'z san'atkorining o'ziga xos ijod olamini tashkil etuvchi ajralmas tarkibiy qism sifatida ijodkor metodi va uslubining o'ziga xos tomonlarini belgilaydi, milliy va umumbashariy g'oyalar rivojiga xizmat qilishini ham ta'kidlab o'tadi²⁴. A. Temirbolatning ilmiy-nazariy umumlashmasida xronotop inson ruhiy olami bilan bevosita mushtaraklikda tasvirlanishi hamda mega, makro va mikro xronotoplarning aloqadorligi ayonlashadi. Bular olam va odam munosabatlarini ruhiyat, jamiyat va koinot kengligida aks ettiradi. **Birinchi**, makon va zamonda kechayotgan o'zgarishlarni koinot hamda yer yuzi; **ikkinchi**, insonlar o'rtasida kechadigan real

²³ Nazarov O'. Omon Muxtor romanlarida badiiy xronotop muammosi. Filol.fan.dok.diss. – Qarshi, 2018. – B. 28-29.

²⁴To'rayeva B. Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi (Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlari misolida). Filol.fan.dok. (DSc).diss. – Toshkent, 2022. – B. 261.

voqea-hodisalar; **uchinchisi**, inson ruhiyati bilan ong va tafakkuri ostidagi ziddiyatlarni ifodalaydi²⁵.

Badiiy matn – roman maydonidagi xronotop shakli muallifning dunyoqarashi, adabiy-falsafiy konsepsiyasi, badiiy niyati bilan chambarchas bog‘liq. Buning isbotini Tomas Harrisning romanlari misolida ko‘rish mumkin. U moziyning aniq bir davrini badiiy asar uchun manba sifatida tanlab olar ekan, muayyan bir dunyoqarash, fasafa ehtiyoji, talablariga asoslangan. Uning tetralogiyasi yozilish tartibida umumiy retrospeksiya kuzatilsa ham, ya’ni dastlabki romanlar bo‘lmish “Qizil ajdarho” va “Qo‘zichoqlar sukunati” markazidagi qahramon Gannibal Lekterning yoshlik yillari, uning ushbu ikki romandagi xatti-harakatlarini keltirib chiqargan bolalik kechinmalari to‘rtinchi romanda aks etsa ham, alohida olingan holatda har bir romanda voqealar ketma-ketligida uzviylik va izchillikka qat’iy amal qilinadi, badiiy zamon **xronologik**, ya’ni izchil-davomiy xususiyatga ega. Romanlardagi voqealar oldinma-keyin tasvir etib boriladi, vaqt oqimi va qahramonlar hayoti uzviy ravishda ifoda qilinadi. Zarurat tug‘ilgandagina **retrospektiv** tasvirdan foydalaniladi: yozuvchi yoki biror personaj tilidan avvalgi zamonga oid voqea hikoya qilib beriladi.

Tadqiqot obyekti bo‘lmish Tomas Harris tetralogiyasi psixologik triller janrida yozilganligi hamda ushbu janr xususiyatlari to‘rtinchi romanda o‘zining kulminatsion nuqtasiga yetib borgunicha syujet asta-sekin yoritib borilishini, bu vaqtda esa shubha va taranglik oshib borishi bilan sifatlanganligi uchun **diskretik vaqt** birlamchi hisoblanadi. Shu o‘rinda badiiy xronotopning ikkinchi qismi bo‘lgan makon tasviridan Harris nechog‘lik mahorat bilan foydalanganligi xususida to‘xtalib o‘tish joiz. “Qizil ajdarho” romanida makonni bildiruvchi joylar asosan AQSHning turli shtatlari (Virjiniya, Alabama, Illinoys, Jorjiya)dan iborat bo‘lsa, keying uchta romanda voqealar silsilasi ta’sirida makon boshqa davlatlarga, xususan, Fransiya, Italiya va Litvaga ham ko‘chishiga quyidagi chizma orqali guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Triller – adabiyot va kino sohasida yaratilayotgan asarlar janri bo‘lib, u tomoshabin yoki kitobxonlarda xavotirli kutuv, hayajon yoki qo‘rquv hislarini uyg‘otadi. Ushbu janrning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lsa ham aniq chegaralari yo‘q. Triller elementlari boshqa janrlardagi asarlarda, boshqa janrlarning elementlari esa trillerda keng qo‘llaniladi. Trillerni tagjanrlarga bo‘lish mavzuviy o‘ziga xosliklarga asoslanadi, umumiy qaralganda ular janrning asosiy xususiyatlariga mos keladi. Jeyms Patterson yozganidek, *“Triller janrida yangidan-yangi turlar paydo bo‘lmoqda va tarkibiy kengayishning ijobiy qabul qilinishi janrning o‘lmas xususiyatlaridan biridir. Kuchli his-tuyg‘ular, ayniqsa, hadik va shodlik, hayajon va nafasning ichga tushib ketishi trillerning turfa xil tagjanrlarni yagona “tom” ostida birlashtiradi”*.²⁶ Triller asarlar mavzu bo‘yicha aviatsiya trilleri, hajviy triller, fitna haqidagi triller, halokat haqidagi triller, halokat haqidagi triller, ekotriller, josuslar haqidagi triller, yuridik triller, tibbiy triller, mistik triller, siyosiy triller, diniy triller, romantik triller, texnotriller, psixologik triller singari bir qancha tagjanrlarga bo‘linadi.

Psixologik trillerning tarixiy ildizlari XVIII asrning oxiridagi naturalistik gotika

²⁵ Темирболат А.Б. Категории хронотопа и темпорального ритма в литературе. Монография. – Алматы: “Ценные бумаги”, 2009. – С. 78.

²⁶ Thriller: Stories to keep you up all night. Ed. Patterson J. Ontario, Canada: MIRA Books, 2006.–P.4.

uslubida, asosan, En Redkliffning asarlarida elas-elas ko'zga tashlanadi. 1790-yilda yozilgan "Sitsiliya romantikasi" romanida voqeanavis diqqati g'ayritabiiy hodisalardan shu singari tabiiy unsurlarni talqin etishda asqotuvchi ruhiy holati tasviriga qaratilgan. Ammo ushbu o'zgarish orqali huquqbuzarliklar psixologiyasi tadqiqiga emas, balki ko'proq ta'sirchanlik borasidagi tanqidiy mulohazalarga ustuvor ahamiyat berilgan. Eng dastlabki psixologik triller namunalaridan biri Meri Bellok Loundesning "Ijarachi" (1913) romani hisoblanib, unda londonlik ijaraga uy beruvchi ayol uyida ko'ziga Burdalovchi Jek bo'lib ko'rinayotgan "Qasoskor" yashayotganidan qo'rquvga tushadi. Romanda shubha-yu gumonlar sababli paydo bo'lgan notinchlik hamda ijarachisining xuddi qotillik singari ko'rinuvchi xatti-harakatlaridan o'zini himoya qilishga zo'r berib urinayotgan ayolning tabiatidagi taranglik ochib beriladi. "Ijarachi" romanidagi gender siyosati ham ahamiyatga molik.

Psixologik trillerda asosiy e'tibor bosh qahramonlarning ichki dunyosiga qaratiladi. Urg'u xatti-harakatlar va tashqi voqeliklarga beriladigan klassik trillerdan farqli o'laroq, psixologik triller qahramonlarning hissiy holati va ichki kurashlarini suratlaydi. Kitobxon o'zi bilmagan holda inson ruhiyati, sirlarning oshkor bo'lishi va jumboqlar yechilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotning guvohiga aylanib qoladi. Psixologik trillerlarning bosh unsuri hisoblanmish taranglik butun asar davomida bosqichma-bosqich o'sib boradi. Ushbu janrda ijod qiluvchi yozuvchilar kitobxonni doimo taranglik va qiziquvchanlik holatida saqlab turish uchun syujet burilishlari, jumboqlar va kutilmagan bog'liqliklardan mahorat bilan foydalanishadi, o'quvchining kutuvlari bilan o'ynashib, noaniqlik va mavhumlik muhitini yaratishadi. Psixologik trillerda, shuningdek, psixologik drama belgilari ham tez-tez mujassam bo'ladi. Psixologik dramalarda qahramonlar o'z tabiatining tund va qorong'u tomonlariga, o'tmishning og'riqli xotiralariga yoki yechimi topilmagan to'qnashuvlarga duch keladi. E'tibor markazida o'z o'y-xayollarini va hissiyotlarini tartibga solishga, boshqa qahramonlarning niyatlarini tushunishga urinayotgan bosh qahramon gavdalantiriladi.

Psixologik triller(roman)ning o'ziga xos xususiyatlari:

1. Harakatlar doimo hozirgi va kelasi zamonda bo'lib o'tadi, syujetda asarning asosiy nuqtasiga tomon oshiqish kuzatiladi;
2. Keyingi voqealar oqimini oldindan bilishning imkonsizligi o'quvchida xavotir bilan kutuv hissini uyg'otadi;
3. Asar yakuni bosh qahramonning shaxsiy fazilatlari, bilimlari va aql-zakovatiga bog'liq bo'ladi;
4. Badiiy tasviriy vositalar aniq bir mavzuga daxldor bo'ladi;
5. Asarlarda kayfiyatni yaratish va intrigani saqlab turish maqsadida ko'pincha boshqa janrlarning elementlaridan ham foydalaniladi.

Dissertatsiyaning "**Tomas Harris romanlarida qahramonlar psixologik talqini davr silsilasida**" nomli ikkinchi bobida tadqiqot obyektini sifatida tanlangan to'rtta psixologik trillerdagi qahramonlar va ularning yaralishiga asos bo'lib xizmat qilgan prototiplarning badiiy psixologik talqini taqdim etilib, ushbu asarlarda yozuvchining tarjimai holi hamda u yashagan va tasvirlagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy muammolarining ijodga ko'chishi masalasi tahlilga tortilgan.

Psixologik triller janridagi romanlarda voqealar markazida turgan qotilning shaxsi

odatda jumboq bo‘ladi va izquvar yoki *psixologik portret* yaratuvchi jinoyat joyida qoldirilgan dalil-isbotlarni tahlil qilish, qurbonlarni har tomonlama o‘rganish orqali uning kimligini fosh etishga urinadi. Shubhadan yiroq biror qahramonning aslida qotil ekanligini fosh etish orqali o‘quvchini hayajon va hayratda qoldirish maqsadida ba‘zan yozuvchi uning shaxsini to‘asar nihoyasigacha oshkor etmaydi. “Qizil ajdarho” romanidagi bosh salbiy qahramon, beshafqat va ruhan nosog‘lom seriyali qotil **Frensis Dolarhayd** obrazining yaralishiga **Dennis Reyder** (1945) ismli jinoyatchi prototip qilib olingan. Reyder ham Dolarhayddek psixologiyada “*shaxsiyatning bir necha qismlarga bo‘linib ketishi*”²⁷ deb ataluvchi kasallikdan aziyat chekadi. Bu kasallik, odatda, insonning bolalik paytidagi og‘ir qiynoq-azoblari oqibatida o‘zida bir necha shaxs tabiatining bir tanada mujassam bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Dolarhayd tez-tez gallyutsinatsiya holatiga tushib qoladi, botiniga in qurgan va uni boshqara boshlagan **Buyuk Qizil ajdarho** bilan psixologik to‘qnashuvlarga duch keladi hamda uning buyrug‘iga, asosan, qotilliklar sodir etadi va bu orqali dunyoni “zararkunandalar”dan tozalaydi.

“Qizil ajdarho” romani bosh qahramonlari Uill Grexem va Jek Krouford uzoq yillar davomida og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tergov-surishtiruv sohasida faoliyat olib borgan **Jon Duglas** (1945) hamda **Robert Ressler** (1937-2013) ismli Federal Qidiruv Byurosi agentlarining aynan olingan obrazlaridir. Uill Grexemning prototipi Jon Duglas inson shaxsiyatini tahlil qilish orqali jinoyatchilarning psixologik portretlarini yaratishdan iborat yangi va samarali tergov uslubini o‘ylab topgan. U sohadagi o‘zining yigirma besh yillik faoliyati davomida mingdan ortiq o‘ta og‘ir turdagi, jumladan, seriyali qotilliklar, bolalarni o‘g‘irlash va jinsiy zo‘ravonlik kabi jinoyat ishlari bilan shug‘ullangan hamda ularning aksariyatini o‘zi yaratgan psixologik portret yaratish uslubi asosida fosh etgan. “**Seriyali qotil**” yoki “**ketma-ket qotil**” atamasini kriminologiya faniga FQBning Xulq-atvor psixologiyasi bo‘limida ularning psixologik portretini yaratish bilan shug‘ullangan Robert Ressler 1978-yilda olib kirgan va “Qizil ajdarho” ushbu atama asosiy mavzu bo‘lgan dastlabki badiiy asar bo‘lgan.

“Qo‘zichoqlar sukunati” romanidagi bosh qahramon, FQB akademiyasi kursanti **Kleris Starling** obrazini dunyoga keltirishda Tomas Harris **Robert Ressler**ning qo‘l ostida ishlagan va qamoqda jazo muddatini o‘tayotgan qirq nafardan ziyod seriyali qotil bilan suhbat olib borgan agent **Patrisiya Kirbidan** (1958) ilhomlangan. Patrisiya Kirbi ijtimoiy psixologiya bo‘yicha bakalavr, kriminologiya bo‘yicha magistrlik darajasiga ega, Kleris Starlingning ham ushbu sohalarida ta‘lim olganini asarda Jek Kroufordning so‘zlaridan bilib olish mumkin. Xuddi Jek Kroufordga o‘xshab Robert Ressler ham Patrisiya Kirbini mana shunday suhbatlar chog‘ida yolg‘iz qoldirgan, negaki mahbuslar oldilariga ayol tergovchi yoki maxsus agent kelganidagina so‘zlashishgan. Patrisiyaga seriyali qotillar bilan maxsus so‘rovnoma doirasida suhbat olib borib, ularning psixologik portretini yaratish topshirig‘i berilgan, chunki FQB shu uslub orqali o‘ta og‘ir turdagi jinoyatlar sonining kamayishiga erishishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Tomas Harris bilan u aynan shunday suhbatlar chog‘ida tanishgan va undan savollariga javob olgan.

²⁷ Prisc J. Serial Killer in Thomas Harris's Novels. Master's thesis. Josip Juraj Strossmayer University of Osijek, Faculty of Humanities and Social Sciences. – Osijek, 2021. – P. 24.

Badiiy obraz o'zida bitta emas, bir necha shaxslarning omuxtalashgan qiyofasini qavdalanirishi ham mumkin. To'rtta romanda har xil darajada ishtirok etuvchi boshqa bir asosiy qahramon, mahbus, ruhshunos shifokor, o'tkir zehn egasi **Gannibal Lekter** obrazini qavdalanirishda Tomas Harris o'zining jurnalistlik faoliyatini endi boshlagan kezlari maqola tayyorlash maqsadida "Argosy" nomli jurnal tahririyati tomonidan Shimoliy Mexikodagi qamoqxonaga yuborilganida uchratgan va suhbatlashgan mahbus shifokor **Alfredo Balli Trevino** (1931-2009) prototipidan qisman foydalangan. Ularning orasidagi eng asosiy o'xshashlik sifatida yuksak madaniyatlilik, nafislik hamda suhbat chog'idagi dilbarlik xususiyatlarining har ikkalasiga ham xosligini ko'rsatish mumkin. Ularning ikkalasi uchun ham "yomon xulq va qo'pollik so'zsiz darajada xunuk"²⁸. Shuningdek, **Ted (Teodor) Bandi** va **Edmund Kemper** ismli seriyali qotillarda uchrovchi ba'zi jihatlar Lekter qiyofasida o'z aksini topgan. Universitetda o'qiydigan mallasoch qizlarni mayib qilgan Ted Bandi tabiatan xudbin, lekin nihoyatda o'qimishli talaba bo'lgan. Intellektual salohiyati juda yuqori bo'lgan Ed Kemper Lekterga o'xshab kitob o'qishni va mukammal avtomobillarni xush ko'rgan.

Romanlardagi makonlarning, muhitning puxta va batafsil tasviri yozuvchi Tomas Harrisning o'ziga xos uslubiga aylangan hamda bu romannavislikda ham jurnalistlik faoliyatidagi realistik yondashuv ta'siri o'laroq maydonga kelgan. Qahramonlar ruhiyatini, ayniqsa, jumboqli va murakkab shaxsiyatga ega Gannibal Lekter siyomosini, xulq-atvorini to'laqonli ochib berishda muhitning atroflicha tasviri muhim rol o'ynaydi. Yozuvchi tomonidan bayon etilgan ba'zi qotillik tafsilotlari, jumladan, jasadlar topilgan joylarning xaritasi, qotillikning alohida xususiyatlari va boshqa ma'lumotlar ochilmay qolayotgan vaxshiy jinoyatlarning fosh etilishiga ham ma'lum darajada ta'sir qilgan. Yozuvchi Jeyms Elroy "Qizil ajdarho" romani haqida gapirayotib, u shu paytgacha o'qigan eng sof trilleri ekanligini va "Yo'ldagi qotil" romanini yozishga ilhom berganini e'tirof etadi²⁹. Hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanish jarayoni, xarakter va **prototip**, tarixiy shaxs obrazi va real tarixiy shaxs munosabati kabi ijod jarayoni bilan bog'liq muammolarni o'rganishda ham sotsiologik yondashuv asos vazifasini o'taydi³⁰. Tomas Harris romanlarida AQSH, **Italiya**, **Fransiya** va **sobiq SSSR** tarkibida bo'lgan **Litvadagi** ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy muammolarga, jamiyatda, huquq-tartibot organlarida ildiz otgan korrupsiya muammosiga, ommaning miyasini yuvayotgan vijdotsiz jurnalistlar-u, urushlar va inqiloblar oqibatida kelib chiqqan rezonanslarga badiiy jihatdan e'tibor qaratishni ham nazardan qochirmaydi. XX asr boshlaridagi Amerika jamiyatiga Ikkinchi jahon urushidan oldin eng katta va fojiali ta'sir o'tkazgan voqea – bu **Buyuk depressiyadir**. Iqtisodiy inqiroz ijtimoiy tanazzulga ham o'z so'zini o'tkazgan, jamiyatning eng kuchsiz qatlamlari bo'lmish yosh bolalar, ayollar va oddiy ishchilar ko'proq qiyinchiliklarga duchor bo'lishgan.

To'rtta romanda, ayniqsa, tetralogiyaning oxirgi qismi bo'lmish "Gannibal: yuksalish"da Birinchi va Ikkinchi jahon urushi dahshatlari, o'sha davrga xos siyosiy-mafkuraviy muammolar, harbiy mojarolar, demokratiya timsoli hisoblanmish

²⁸ Harris T. Qo'zichoqlar sukunati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 35.

²⁹Rich N. "James Ellroy, The Art of Fiction No. 201". The Paris Review, No. 190 (FALL 2009) // <https://www.theparisreview.org/interviews/5948/the-art-of-fiction-no-201-james-ellroy>

³⁰Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 287.

davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimida ildiz otgan korrupsiya, va terrorizm balosining tasviri, ularning qahramonlar taqdirida qoldirgan izlari qizg'in voqealar fonida jonli tarzda aks ettiriladi. Gannibal Lekterning bolalik yillari Ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri keladi va birin-ketin fojiali ravishda yaqinlaridan judo bo'lib, undan keyin bolalar uyida, Sovet mafkurasi ostida ulg'ayadi va o'smir chog'ida amakisining ko'magi bilan hayotining keyingi bosqichi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan Fransiyaga yo'l oladi. Gannibalning oila a'zolaridan ayrilishiga sababchi bo'lganlar urush davrida dezertir bo'lib, armiyadan qochgan zobitlar bo'lib, bir qator jinoyatlarni amalga oshirishda **Nyurenberg** sudida aybdor deb topilishadi, biroq, har xil bahonalar bilan jazodan qutulib qolib, keyinchalik jinoiy yo'ldan yurishda yana davom etaverishadi, bunda davlat muassasasida egallagan lavozimlari shunchaki niqob vazifasini bajaradi, aslida ular odam savdosi, noqonuniy qurol-yarog' savdosi bilan shug'ullanishadi. Ularning tirikligini bilgan Gannibalning hukumatdan yoki suddan marhamat kutmasdan, qotillardan shaxsan o'zi qasos olishga intilishi o'sha davrda adolatga nisbatan aholi orasida ishonchning yo'qligidan ham darak beradi. **Jeym Gam** hali onasining qornidaligi paytida, u go'zallik tanlovida ishtirok etayotgan vaqt ham Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarga (1948) to'g'ri keladi va bunda Harrisning makon va zamonga muvofiq hikoya uslubi ko'zga tashlanadi. Romanlarda Ikkinchi jahon urushidan tashqari *AQSHning Janubiy Koreya, Gong Kong va Vyetnamda sodir bo'lgan urushlar va mojarolardagi ishtiroki* qahramonlar tilidan yo'l-yo'lakay eslab ketiladi. Misol uchun, Jek Kroufordning Janubiy Koreyada xizmat qilganligini va o'sha davrlardan unda qanday xotiralar qolganini quyidagi qisqa jumalardan bilib olish mumkin: *"Baltimorning pastqam ko'chalarida Klerisga aytgan gaplarini u qachonlardir urush o'chog'iga aylangan Koreyada xizmat qilayotganida o'ziga hamroh bo'lgan son-sanoqsiz izg'irinli tonglarda o'rgangan edi. U vaqtlarda hali Kleris tug'ilmagan edi. Krouford o'zining Kleris oldidagi nufuzini mustahkamlashga ehtiyoj sezmagani uchun Koreyada xizmatda bo'lganligini aytib o'tirmadi."*³¹

Qiziqarli jihati shundaki, aynan o'sha vaqtda Frensis Dolarhayd ham harbiy xizmatini Sharq davlatlarida o'tagan: *"1958-yilda u harbiy xizmat muddatini yana bir bir necha yilga uzaytirdi va shu davrda o'zi uchun Gongkongni kashf etdi. Ularning Seuldagi laboratoriyasi 1950-yillari oxirida kichik razvedka samolyotlari 38-parallel ustidan uchib o'tib suratga olgan filmlarini qayta ishlab tayyor holatga keltirish bilan shug'ullanardi. Ta'til paytida u Gongkongga ikki marta tashrif buyurishga muvaffaq bo'ldi. 1959-yilda Gongkong va Koulun shaharlari o'yin-kulgi va ko'ngilxushlik markazi edi"*.³² Bunday mutanosibliklar romanlarda ko'plab topiladi va Tomas Harrisning badiiy haqiqatni yuzaga keltirish yo'lida tarixiy haqiqat doirasidan chiqmasdan, qahramonlarini o'sha davrda yuz bergan yirik siyosiy hodisalarning ishtirokchisi yoki hech bo'lmaganda, o'sha davrda yashab ko'rganligini ta'sirli va asosli ravishda ko'rsatib bera olganligi kasbiy mahorati qay darajada yuqori ekanligini bildiradi.

Tomas Harris "Qo'zichoqlar sukunati" da **ayol obrazini** (Kleris Starling) bosh

³¹ Harris T. Qo'zichoqlar sukunati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B.234.

³² Harris T. Qizil ajdarho. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. – B.314.

qahramon darajasiga ko'taradi. Shu bilan birga, qolgan uchta romanida ham ayol obrazining faol ishtirokini ta'minlaydi. Tomas Harris yaratgan ayol obrazlarining ijtimoiy ahamiyati va asardagi missiyasi haqida romanlarning xronologik ketma-ketligi bo'yicha tahlil orqali javob topish maqsadga muvofiqroq. Dastavval FQB akademiyasida tahsil olayotgan kam sonli ayol kursantlardan biri sifatida gavdalanirilgan **Kleris Starling** keyingi romanda ("Gannibal") FQB tarkibidagi Xulq-atvor psixologiyasi bo'limining eng ko'zga ko'ringan abjir xodimiga aylanadi. Yozuvchi Kleris portreti orqali kitobxonlarni u bilan tanishtirish maqsadida qahramonining tashqi qiyofasi tasvirini bergandek tuyuladi, biroq mazkur portret chizgilarida Klerisning tabiatiga xos nuqtalarning o'rin olganligi tashqi va ichki portretni uyg'unlashtiradi. U kursantlik chog'idayoq ko'plab erkak kursantlardan o'zib ketadi, xususan, to'pponcha tepkisini daqiqasiga 74 marta bosib, o'zining mahoratini va vazifalarga mas'uliyat bilan yondashishini namoyish etadi, biroq murabbiy Jon Brigem uning *"ikkala qo'lida ko'rsatgan natijasi o'rtachadan ancha yuqori" ekanligini e'tirof etsa ham unga baribir "unchalik yaxshi bo'lmagan"* bahoni beradi va o'qishni bitirgunicha daqiqasiga to'qson marotaba tepki bosadigan darajaga yetishini tayinlaydi.

Klerisning qobiliyati va aql-idroki ayol kishi bo'lganligi uchun ham erkaklar hukmron bo'lgan tashkilotda nazarga ilinmaydi, boshqa joylarda esa unga nisbatan hurmatsizlik ko'rsatiladi. Jek Krouford unga Buffalo Billga oid jinoyat ishi bo'yicha ish olib borish vazifasini yuklash asnosida Klerisning salohiyatiga emas, balki uning ayollik jozibasiga, tashqi ko'rinishiga ko'proq ahamiyat berganligini Klerisning prototipi Patrisiya Kirbi tasdiqlaydi. Kleris Krouford uchun o'tkir aql-zakovati, a'lo baholari va iste'dodi emas, ayolligigina muhimligini sezib, xo'rliqi keladi, g'azab hissini tuyadi. Erkak kishi boshqarayotgan ish muhitida ko'rkamroq ayolning muvaffaqiyatga erishishi osonroq, holbuki, unga teng darajada bilimli, ammo unchalik go'zal bo'lmagan ayol xodimga ko'pincha rad javobi berilishini, go'zal yuz va qomatga ega bo'lmagan ayollarning qobiliyati kamsitilishini yaxshi bilgan Tomas Harris Klerisning kayfiyati va o'y-xayollari ushbu stereotipga qarshi o'z noroziligini bildirayotgandek tuyuladi. Tetralogiyada ayol qahramonlarning taqdir sinovlariga bardoshli, birovga boqimanda bo'lmasdan mustaqil tirikchilik qilishni ep ko'ruvchi xotin-qizlar sifatida tasvirlanishiga ko'p o'rinlarda guvoh bo'lish mumkin. "Qizil ajdarho"dagi *Molli Grexem*, Dolarhayd xonim va uning qizi *Merian, Riba MakKleyn*, "Qo'zichoqlar sukunati"da *Kleris Starling, Fredrika Bimmel, Ketrin Martin*, "Gannibal"dagi *Beverli Ketz*, "Gannibal: Yuksalish"dagi *Shikibu Murasaki* Harris yaratgan kuchli va har tomonlama epchil, aqlli, shu bilan birga, qiyinchilik va yo'qotishlarga qaramasdan hayotda, jamiyatda o'z o'rnini topishga intiluvchan ayollar obrazlaridir. Ular romanlarning asosiy g'oyasini ochishga xizmat qiladi.

"Tomas Harris romanlarida badiiy xronotop va yozuvchi uslubiyati" nomli uchinchi bobda yozuvchining romanlarida makon va zamoni tasvirlash usullari, uning uslubiyatida shaxsiyatiga xos unsurlarning ham uchrashi tahlil qilinadi. Harris romanlarida real xronotop voqea-hodisalarning tarixiy shart-sharoitda ro'y berganligini hamda ishonarli ekanligini ifoda etadi. Xronotop badiiy asarning janrini ko'rsatuvchi shakliy-mazmuniy kategoriya sifatida badiiy makon va badiiy zamonning ko'lami,

ularning tarixiy jihatdan aniqligi, badiiy va estetik tomonlama asosga egaligi, syujetga uygunligini, qahramonlarning ichki ruhiy olamining bepoyonligi, o'y-xayollar va his-tuyg'ular oqimi, xatti-harakatlar yo'nalishi orqali asarning romanlik maqomini ko'rsatadi.

Xronotop dialektikasida badiiy adabiyotdagi badiiy zamon badiiy makon uyg'unligida o'zlashtiriladi. Ushbu dialektikada falsafa va estetika fanlaridagi an'anaviy "makon hamda zamon" tushunchalari "zamon va makon" tushunchasida yaxlitlashadi. Badiiy asarda makon yetakchilik qilib turgan o'rinda zamon muammosi orqa fonga o'tishi hodisasi kuzatiladi.

Harrisning to'rtta romani bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, dastlabki uchta roman o'rtasidagina uzviy ketma-ketlik kuzatiladi va mantiqiy yakun beriladi, lekin eng oxirgi bo'lib nashr etilgan to'rtinchi roman, ya'ni "Gannibal: yuksalish"da birinchi roman – "Qizil ajdarho" voqealarigacha bo'lgan davr Gannibal Lekterning hayot yo'li nuqtayi nazaridan yoritiladi va umumiy xronologik yaxlitlik shu romanga kelganda buziladi. Aytish joizki, alohida olingan romandagi ichki xronologik yaxlitlik buzilmasa-da, retrospeksiya va prospeksiya usullari yordamida birdan o'tmishga qaytish hamda kelajakka yo'naltirilish holatlari barchasida kuzatiladi. To'rtta romanda ham voqea-hodisalar tizimida dialoglar va hikoyaviy yo'sin orqali syujet shakllanib boradi, lekin qahramonlarning o'tmish xotiralari, ayni damdagi voqealarga nisbatan ichki, xayoliy munosabati, fikri va murojaati ham salmoqli o'rin egallaydi. Tomas Harrisning "Qizil ajdarho" romanidagi markaziy voqealar **1970**-yillarning oxirida, taxminan bir oy ichida yuz bersa, "Qo'zichoqlar sukunati"dagi hodisalar **1983-1984**-yillar oraliq'ida bo'lib o'tadi. Ikki roman voqealari orasida qariyb olti yillik oraliq mavjud. Uchinchi roman muqaddimasida esa yozuvchining o'zi "Qo'zichoqlar sukunati" romani bilan mazkur roman voqealarigacha bo'lgan vaqt oraliq'iga quyidagicha aniqlik kiritib ketadi: "*Gannibal Lekter qamoqdan qochib ketganidan, Kleris Starling u bilan qattiq qo'riqlanuvchi aqli noraso jinoyatchilar saqlanadigan shifoxonada suhbatlashganidan buyon oradan yetti yil o'tgan edi. Doktor hanuz ozodlikda, ammo Lekter bilan uchrashuvlarini Starling yodidan zinhor chiqmagan, uning onda-sonda eshitiladigan zanglagan metalning g'ichirlashiga o'xshash ovozi hamon tushlarida jarang sochardi*"³³. "Gannibal: yuksalish" romanida esa birdan yarim asr orqaga, 1941-yilga qaytish kuzatiladi. Aynan o'sha yili yoz faslida Gitler Germaniyasi "Barbarossa" harbiy operatsiyasi doirasida sobiq SSSR hududiga bostirib kiradi va o'sha paytda uning tarkibiga kirgan Litvani bosib oladi. Litvadagi eng obro'li xonadonlardan birining farzandi Gannibal Lekter bu paytda sakkiz yoshda bo'ladi va roman so'ngiga borib, yigirma to'rt-yigirma besh yoshlardagi navqiron yigit sifatida gavdalanadi.

Ma'lumki, adabiy asar bilan bog'liq bo'lgan vaqt to'rtta turga ajratib, tahlil qilinadi. Ular: asarning yozib tugallangan va chop etilgan vaqti, asar voqealari so'zlab berilayotgan vaqt, asar voqealari sodir bo'lgan vaqt hamda kitobxonning asarni mutolaa qilgan vaqti. Mazkur to'rtta vaqt bir-biriga yaqin ham, uzoq ham bo'lishi mumkin. Misol uchun, Gannibal Lekter turkumiga kiruvchi ilk roman **1981**-yilda chop etilgan va unda o'sha davr uchun yaqin o'tmish hisoblangan 1970-1980-yillar aks ettiriladi. 1988-yilda nashrdan chiqqan "Qo'zichoqlar sukunati" romanida ham yozuvchi 5 yil

³³ Harris T. Hannibal. – New York: Bantam Dell, 1999. – P. 3.

oldingi davrda yuz bergan hodisalarni qalamga oladi. 1999-yilda chop etilgan “Gannibal” romanida **1990-1993-yillar** oraliqidagi davr voqealari tasvirlanadi. Vaholanki, 2006-yilda chop etilgan “Gannibal: yuksalish” buning aksini ko‘rsatadi, ya’ni asar markazida 1930-50-yillar voqealari yotadi.

Tetralogiyada turli qahramonlar tomonidan o‘tmishni eslash holatlari ko‘p uchraydi. Yozuvchi Tomas Harris to‘rtta romanni alohida boblarga ajratgan holda taqdim etadi va ko‘pincha bir bob voqealari ketma-ket keyingi bobda emas, balki aralash tartibda beriladi. Bundan ayni bir zamonda asardagi makonlarda har bir qahramon bilan kechayotgan hodisalar uzviylikini ta’minlash va voqealar silsilasining yaxlit tasavvurini saqlash maqsadi ko‘zda tutilgan. Romanlarda bir-biridan unchalik uzoq bo‘lmagan quyidagi zamon-makonlar tasvirlangan:

- 1) Gitler Germaniyasining Litvaga bosqini va Lekterlar xonadonining zavoli;
- 2) Gannibal Lekterning Parijda o‘tgan o‘spirinlik va yigitlik yillari, ilk qotilliklari;
- 3) Lekterning AQSHda ruhshunoslik faoliyatini boshlashi va obro‘ qozonishi;
- 4) Lekterning Uill Grexem tomonidan qo‘lga olinishi va “Tish parisi”ni tutishda yordam ko‘rsatishi;
- 5) Kleris Starling va Lekter uchrashuvi hamda uning qamoqdan qochishi;
- 6) Starlingning ishdan bo‘shashi va Lekter bilan ketishi.

Ushbu zamon-makonlar badiiy matn tarkibida o‘zaro uyg‘unlashib, romanlardagi yetakchi badiiy tamoyillarni oydinlashtirishga sharoit yaratadi. Yirik miqyosli voqealarga boy romanlarning badiiy hududida 1938-yildan to 1990-yillarning oxirigacha bo‘lgan davr tasvirlanadi. Yozuvchi ba’zida kunlar va oylar ichida nimalar ro‘y berganini batafsil ifodalasa, ba’zi hollarda besh-olti yillik hodisalarni bir jumlagacha sig‘dirib ketishni lozim topadi. Bunda, albatta, qalamga olinayotgan hodisaning syujetda kasb etuvchi ahamiyatidan kelib chiqadi.

Tomas Harrisning to‘rtta romanida ham uning uslubiy izlanishlari va adabiy janrga kiritgan yangiliklari yaqqol aks etadi. Jumladan, psixologik triller janrida ijod qilgan zamondosh adiblaridan farqli ravishda uning **1980-2000-yillar oraliqida** yozgan uchta romanida **intertekstual** matnlarga murojaat qilish, hattoki ularning romanlar mohiyatini anglashdagi ahamiyatini oshirish holati kuzatiladi. Harrisning adabiyot va san’atga katta ta’sir o‘tkazgan shoirlar, rassomlar, umuman, san’atga aloqador tarixiy shaxslarning ham ijodidan boxabarligi hamda asarlarida ular ilgari surgan g‘oyalar yoki maslaklarga zimdan va bevosita urg‘u berib ketishi yozuvchi sifatida o‘ziga taalluqli barcha sohalarida chuqur izlanishlar olib borganligini ko‘rsatadi. Oddiy qamoqxona yoxud Florensiyadagi muzey tasvirida ham mavzuga va qahramon tabiatiga mos detallarning o‘rin olinishi va o‘quvchida mukammal tasavvur paydo qilishi izlanishlar samarasidan darak beradi. **Intertekstuallik** adabiy matnda quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: *iqtibos, allyuziya, nusxa ko‘chirish, tarjima, o‘xshatma*. Bularning orasida allyuziya tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyatga molik hisobalanadi, chunki Harris romanlarini adabiyotda va tasviriy san’atda o‘ziga xos o‘rin tutgan ijod namunalariga aynan ushbu vosita yordamida bog‘lab, qahramonlar va ular atrofida ro‘y beruvchi voqealarni o‘zgacha xarakterlantirishga, shu asnoda, o‘z g‘oyaviy-mafkuraviy maqsadlarini ifoda etishga erishgan. Tomas Harris psixologik triller janridagi romanlarida o‘zining hikoyaviy yo‘sinini, tasvirlash tarzini hamda

shaxsiyatiga xos bo'lgan boshqa unsurlarni o'zaro jipslashtirish orqali janriy an'analarga ma'lum darajada o'zgartirish kiritadi, o'ziga xos "topilma" yasaydi –bir vaqtning o'zida ham tenggi yo'q olim, ham qonxo'r va shafqatsiz qotil sifatida gavdalanuvchi **Gannibal Lekter** obrazini olib kirish orqali asarlarining muvaffaqiyatini ta'minlashga erishadi. Aynan shu qahramon janriy an'analarga kiritilgan yirik o'zgarishlardan biri bo'lib, Harrisdan oldin biror yozuvchida bu holat kuzatilmaydi.

Harrisning romanlarda qo'llagan allyuziyalari rang-barangligi bilan ajralib tursa-da, ular orasida **Uilyam Bleyk**ning ijodi ko'proq "tosh bosadi". XVIII asrning oxiri – XIX asrning birinchi choragida yashab o'tgan ingliz shoiri, rassomi va o'ymakor ustasi Bleykning ijodida bir nechta tarixiy davrlarning estetik xususiyatlari, turli uslublarda yaratilgan badiiy asarlar, suratlar va san'at asarlari uyg'unlashgan. Yoshligidan she'r yozib, rasm chizgan Bleyk "*qonun-qoidalar va chekovlarni jinni suymaganligi uchun*"³⁴ maktabni tugatmagan bo'lsa-da, o'ziga yoqqan va qiziqtirgan kitoblarni juda ko'p mutolaa qilganligi sababli zehn-idroki nihoyatda o'tkir odam bo'lib yetishgan. Uning ijodiga gotik san'at kuchli ta'sir o'tkazgan va uning uchun san'atning yagona jonli shakli sifatida namoyon bo'lgan. O'zining "*Begunohlik navolari*" (Songs of Innocence) va "*Kechinmalar sadosi*" (Songs of Experience) asarlarini birlashtirib, ular aslida inson qalbining ikki qarama-qarshi holati ekanligini qayd etgan. Uning suratlarida ham bu qarama-qarshilik o'z aksini topgan. She'rlaridagi yirik to'qnashuvlar, ulkan obrazlar va hal qilib bo'lmaz mojarolar hayotdagi yechimsiz to'qnashuvlarni ifodalaydi. Noodatiy hayot tarziga ega bo'lgan Bleykni zamondoshlari jumboqli, g'ayrioddiy va tushunib bo'lmaydigan tabiatli inson, deb bilishgan bo'lsa, bugungi kunda olib borilayotgan chuqur tadqiqotlar natijasida uning aslida yuksak darajali gumanist yozuvchi va ijtimoiy adoaltsizliklarni ayovsiz fosh etuvchi san'atkor bo'lganligi ochiqdan ochiq. Ingliz romantik she'riyati ham uning ijodidan boshlangan, u bir o'qishda anglab bo'lmaydigan murakkab va yorqin she'rlar bitgan, she'riy to'plamlarini "dohiyona kitoblar", deya e'tirof etgan.

Harrisning "Qizil ajdarho" romanini Uilyam Bleyk ijodiga yo'naltirilgan havolalarni anglab yetmasdan turib tahlil qilish noto'g'ri, chunki romanning nomi ham Bleyk 1805-1809-yillar oralig'ida chizgan "**Buyuk qizil ajdarho va quyosh nuriga chulg'angan ayol**" suratidan olingan. Avvaliga ommaviy axborot vositalarida, keyinchalik hattoki politsiya bayonotlarida "*Tish parisi*" laqabi bilan tilga olingan seriyali qotil Frensis Dolarhayd aynan ushbu suratga mahliyo bo'lib qoladi, ajdarhoning g'oyibdan unga mujdalar yo'llayotganini his qilib, tanasiga uning tatuirovkasini chizdiradi. Romanda Harrisning Bleyk ijodiga ochiqdan-ochiq va takroran murojaat qilishi avvaliga o'quvchini savollarga ko'mib tashlaydi hamda asar nihoyasiga yetayotganida Harrisning va Bleykning ezgulik hamda yovuzlik haqidagi qarashlari mushtarak ekanligi ko'zga tashlanadi. Bleykning "Buyuk qizil ajdarho va quyosh nuriga chulg'angan ayol" surati Dolarhaydning "*shakllanish*" jarayonini tavsiflovchi eng ustuvor timsol bo'lib, unda erkak ilohning vujudga kelishi tasvirlanadi. Dolarhayd mazkur buyuk jarayonning ko'rinishi unga ayon bo'ladi, degan umidida Gannibal Lekterga maktub yozadi. Maktubida o'zini "*ziyoratchi*" deb atashi ham

³⁴ Wilson M. The Life of William Blake. – London: Peter Davis publishing house, 1948. – P. 3.

bejizga emas, bu orqali Dolarhayd o'zining sharaflari safarga o'tlangan buyuk shaxs sifatidagi roolidan boxabar ekanligiga va Lekterga ham buni ma'lum qilmoqchi ekanligiga ishora qiladi. Xuddi Bleykning suratida tasvirlanganidek, u o'zini itoat va yuvoshlik devorlarini yiqishga chog'langan, ijodkorlik ishtiyoqi yuqori darajaga chiqqan kuchli erkak sifatida ko'radi³⁵. Dolarhaydning Bleyk suratidan olingan nusxaga ilk bora to'qnash kelgan paytidagi holati qo'rquv ichidagi ayolning tepasida muallaq turgan iblissifat ajdarho siymosida o'zini ko'rganligini aks ettiradi: *“Bir necha kun davomida u suratni o'zi bilan olib yurdi, keyinchalik ishxonasida suratga tushirib, hajmini kattalashtirdi va qog'ozga chiqarib oldi. Uning vujudini nihoyasiz hayajon umuman tark etmasdi. Suratni uyiga olib kelib, sport zalidagi ko'zguning yoniga yopishtirib qo'ydi va mashg'ulotlari paytida undan ko'z uzmadi... Unga sharaflari vazifa yuklatilgan. O'zining uzoq vaqtdan beri tutqich bermay yurgan haqiqiy taqdiriga ergashib, shuncha vaqtdan buyon yopiq turgan yolg'izoyoq yo'ldan yurib, vazifani amalga oshirishi mumkin”*³⁶.

Yozuvchining Dolarhaydning aynan kimga aylanish istagida ekanligi borasidagi g'oyasining bosqichma-bosqich ifodasi “Qizil ajdarho” romanining qariyb yarmiga yoyilib ketgan. Bleykning suratidan taralayotgan qudratni azbaroyi o'zining tanasiga ko'chirishni istagan Dolarhayd muzeyga kirib, uni chaynab, yutib yuboradi. Bu harakati ham uning qasoskor erkak qiyofasiga ega bo'lishga bo'lgan qattiq ishtiyoqini isbotlaydi. R.L. Stivenzonning qahramoni **Xayd** patriarxal hukmronlik va jismoniy ustunlikni ko'zlaganidek, Dolarhayd ham o'zining shakllanish jarayonini shunday ko'radi. Bleykning suratida aks etgan *“orqa oyoqlarida qaddini g'oz tutgan cha yo'g'on dumi bilan yerda yotgan va qo'llarinicho'zib undan rahm-shafqat so'rayotgan ayolni chirmab olgan bahaybat “Ajdarho-odam”ga*³⁷ mos ravishda Dolarhaydning **evrilish** jarayoni ham ayollar hisobiga kuch-qudratga erishish negizida namoyon bo'ladi.

Tetralogiyada muallif allyuziyalardan tashqari timsollar, tasviriy ifodalar, ismlar, kinoya va qochirma hamda dialoglardan keng foydalanadi. Harrisning bosh va hattoki ikkinchi darajali qahramonlarga ismlarni syujetga mos va xos timsollar, tarixiy voqealar va o'xshashliklar asosida donolik bilan tanlashi ham uning o'ziga xos uslubiyatidan darak beradi. Birgina “Gannibal” ismini ham tarixiy, ham madaniy, ham psixologik jihatdan kelib chiqish ildizlari o'rganilganda, ushbu qahramonga xos donishmandlik, strategiyali rejalar tuzish va atrofdagilarni o'ziga mahliyo qilib qo'yish xususiyatlari miloddan avvalgi 3 asrda Karfagenda yashab o'tgan va Rim bosqiniga qarshi mardonavor kurash olib borgan **Gannibal Barsa** shaxsiga borib taqalishi, inson tana a'zolarini iste'mol qilish xususiyati esa uning kannibalizm (odamxo'rlik)ka moyilligini, Gannibal ismi “cannibal” so'zi bilan qofiyadosh bo'lib kelishi o'quvchida uning botiniy olami haqida taassurot qoldirishda muhim rol o'ynaydi (1-jadvalga qarang).

³⁵ Magistrale T. Transmogrified Gothic: The Novels of Thomas Harris. In *Dissecting Hannibal Lecter: essays on the novels of Thomas Harris*. Ed. Benjamin Szumskyj. – London: McFarnald, 2008. – P. 134-135.

³⁶ Harris T. Qizil ajdarho. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. – B. 316-317.

³⁷ Harris T. Qizil ajdarho. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. – B. 418.

Tetralogiya bosh qahramonlariga qo‘yilgan ismlar ma‘nolari, qo‘llanilgan timsollar va allyuziyalar

ISMLAR	TIMSOLLAR	ALLYUZIYALAR
<p>“Gannibal” – 1. Rim imperiyasiga qarshi kurashgan karfagenlik general ismidan; 2. “Kannibal” (odamxo‘r) so‘zi bilan qofiyadosh;</p> <p>“Lekter” – lot. <i>“lector”</i> – ziyoli, bilimli;</p> <p>“Kleris” – lot. <i>“clarus”</i> – aniq, oydin, haqiqatga oydinlik kirituvchi ma‘nosida;</p> <p>“Starling” – ing. chug‘urchuq – mitti, chaqqon, moslashuvchan qush.</p> <p>“Buffalo Bill” – AQSH razvedkachisining laqabi (XIX asr);</p> <p>“Jeym Gam” (Jame Gumb) – apokopa fonologik hodisasi, nogironligiga, vayronkor tabiatiga ishora.</p> <p>“Chilton” – ing. <i>“chilly”</i> dan, toshbag‘ir, qattiqqo‘l inson ma‘nosida.</p> <p>“Dolarhayd” – R.L. Stivenson asari qahramoni Haydga ishora.</p>	<p>Qizil ajdarho</p> <p>Qo‘zichoqlar</p> <p>Kapalak g‘umbagi</p> <p>O‘likbosh tungi kapalak</p> <p>Cho‘chqalar</p> <p>Qassobxona va ferma</p> <p>Qamoqxona</p> <p>Gannibalning himoya niqobi</p> <p>Florensiya va Uyg‘onish davri tasviriy san‘ati</p> <p>Evrilish jarayoni (erkaklikdan ayollikka, oddiylikdan buyuklikka)</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Uilyam Bleykning “Begunohlik navolari”, “Kechinmalar sadosi”, “Jannat va do‘xaxning nikohi”, “Qiyomat” asarlari va “Buyuk qizil ajdarho va quyosh nuriga chulg‘angan ayol” portreti (XIX asr) • Iso payg‘ambarning chormixga tortilish voqeasi tasviri; • E.E.Kammings “Buffalo Bill” she‘ri; • Murasaki Shikibuning “Shahzoda Genji haqida qissa”si (XI asr); • Stivensonning “Doktor Jekill va janob Xayd” asari (XIX asr); • Meri Shellining “Frankenshteyn, yoki Zamonaviy Prometey” asari (XIX asr)

Harris Parijga amakisini qora tortib kelgan o‘smir Gannibal Lekterning yangi jamiyat va yangi insonlar bilan kechadigan hayotini tasvirlashda yapon klassik adabiyotining eng yorqin namunalaridan biri bo‘lgan “Shahzoda Genji to‘g‘risida qissa” asariga murojaat qiladi. Buni u adabiy suhbatlarda e‘tirof etib o‘tgan. Qiziq jihati shundaki, Gannibalning amakisi graf Robert Lekterning rafiqasi sifatida gavdalanuvchi yapon millatiga mansub Murasaki Shikibuning ismi 986-1011-yillarda Yaponiyani boshqargan imperator Syosi saroyida xizmat qilgan va yuqoridagi qissani yozgan shoira **Murasaki Shikibu** (978-1025) ning ismidan olingan. Shahzoda Genji obrazini Gannibal Lekterga ko‘chirgan Harris uning yoshlik yillarini ham shahzodaning hayot yo‘liga monand tarzda tasvirlaydi. Tomas Harrisning tadqiqot uchun tanlangan tetralogiyasida gotik adabiyot an‘analari va timsollari ko‘p ko‘zga tashlanadi. Ular orqali qahramonlarning o‘zligida kechayotgan evrilishlar, boshqa bir odamga aylanishga bo‘lgan istaklari (Frensis Dolarhayd, Jeym Gam) bilan gotik adabiyotning mashhur namunalari orasidagi badiiy mushtaraklik yuzaga keladi. Stivensonning “Doktor Jekill va janob Xayd” romanidagi qahramonlarga o‘xshab, Harrisning qahramonlari ham jismoniy jihatdan o‘zgarish ilinjida harakat qilishadi va bu holatni ijtimoiy me‘yorlardan tashqariga chiqib ketish sifatida baholashmaydi. Jekill o‘zining

shaxsiyatida namoyon bo‘luvchi ikkinchi shaxs–janob Xaydning nafaqat jismonan, balki ruhan ham hukmronlik qilishini anglab yetadi. “Qizil ajdarho”dagi Dolarhayd, “Qo‘zichoqlar sukunati”dagi Jeym Gamning ularga o‘xshash jihati shundaki, ikkalasi ham ularni nazar-pisand qilmaydigan jamiyatda o‘rnatilgan axloqiy me‘yorlarni buzish orqali ozodlikka erishishni ko‘zlaydi. O‘zgarish falsafasi xayollarini tamoman band etib, jilovlangan istaklarning amalga oshishiga faqatgina zo‘ravonlik va majburlash orqali erishish mumkin, deb bilishadi.

XULOSA

Mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm mavzusida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa ham, badiiy obrazlar aks ettirgan qiyofalar orqali real hayotdagi insonlarning murakkab botiniy olamini tadqiq etish orqali ulardagi ruhiyat evrilishlarini teranroq o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj doimo mavjud va o‘z dolzarbligini hech qachon yo‘qotmaydi.

“Tomas Harris asarlarida qahramon badiiy psixologizmi” mavzusi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tomas Harris ijodida badiiy psixologizmning o‘ziga xos xususiyatlari psixologik tafsilotlar, qahramonlarning psixologik xatti-harakatlari, ruhiy tavsif, psixologik konflikt, “qalb dialektikasi”, qahramon tomonidan xronotopning o‘zlashtirilishi, qahramonning o‘z-o‘zini anglashi va vaziyat taqozosi bilan qahramonning ruhan o‘zgarishlarga uchrashi negizida namoyon bo‘ladi;

2. Badiiy olam tasvirini qayta yaratishda yozuvchining romanlar strukturasi boshqa unsurlari singari real xronotoplardan, shu bilan birga, tush, xotiralar va urush xronotoplaridan keng va o‘rinli foydalanganligi, badiiy zamon va makonda kechgan voqea-hodisalar asosida jamiyatdagi muammolar, kamchilik va nuqsonlarni ochib berganligi va badiiy asarning ma‘no sathini kengaytirganligi uning mahorati ko‘lamini belgilaydi. Tomas Harris tetralogiyasida diskretik vaqt (bo‘linib, uzilib turadigan vaqt) birlamchi hisoblanadi.

3. O‘z tadrijiy taraqqiyoti mobaynida gotika, detektiv va qo‘rqinchli asarlarga xos xususiyatlarni ham o‘zlashtirgan psixologik triller janri ular bilan ma‘lum darajada umumiylik kasb etadi. Shu bilan birga, triller asar to‘o‘zining kulminatsion nuqtasiga yetib borgunicha syujet asta-sekin yoritib borilishi, bu vaqtda esa shubha va taranglikning shiddatli tarzda oshib borishi, aniq tafsilotlarga murojaat qilinishi bilan ulardan farqli janr ko‘rinishida sifatlanadi.

4. Yozuvchilikka qariyb o‘n yillik jurnalistlik tajribasi bilan kirib kelgan Tomas Harrisning romanlarida mayda tafsilotlarga nihoyatda diqqat bilan yondashishi, dalil-isbotlarning jinoyat izlariga bog‘liqligini mohirona tasvirlashi, qolaversa, voqealar fonida markaziy ahamiyat kasb etuvchi qahramonlarning ruhiyatini ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarga muvofiq holatda uyg‘un suratlashi yozuvchi sifatida o‘z individual uslubiga ega ekanligini belgilab beradi.

5. Romanlarda obrazlarning ruhiy olami tasviri badiiy psixologizmning uslubiy qonuniyatlariga asoslanadi. Qahramonlar ruhiyatini ishonarli tarzda ochib berishda psixologizmning badiiy-estetik tamoyillari muhim o‘rin egallaydi hamda ularning

asarlar syujetiga shaklan va mazmunan muvofiqligi badiiy-konseptual jihatdan yaxlit psixologizmni yuzaga chiqaradi.

6. Tetralogiyadan o‘rin olgan romanlarning bosh qahramonlari Uill Grexem, Jek Krouford, Kleris Starling, Gannibal Lekter, Frensis Dolarhayd, Jeym Gam muayyan prototiplar asosida yaratilgan bo‘lib, real hayotdagi tergov-surishtiruv sohasi xodimlari (Jon Duglas, Robert Ressler, Patrisiya Kirbi), jinoyatchi qotillar (Ted Bandi, Gari Heydnik, Denis Reyder) va boshqa shaxslar ushbu obrazlar bilan qator muvofiqliklarga ega.

7. Tetralogiyaning markaziy o‘rinlarida ko‘rinish beruvchi Kleris Starling obrazi orqali ijtimoiy haq-huquqlar uchun kurashuvchi “yangicha ayol” siymosini ochib berishi Tomas Harrisning psixologik triller janriga olib kirgan eng katta yangiligidir. Ayollarning ijtimoiy maqomiga oid bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan muammolar va jamiyatdagi stereotiplarning Harris qahramonlari taqdirida aks etgan jihatlari atroflicha tekshirildi;

8. Harris 1981-2006-yillar oralig‘ida yozib bitirgan tetralogiyasiga qariyb ellik yillik badiiy zamoni qamrab oladi, bunda u bitta yirik (qirq yil) va uchta kichikroq vaqt birliklaridan foydalangan. Badiiy zamoni ifoda etishda Tomas Harris to‘g‘ridan-to‘g‘ri yil va sanalarga, shu qatorda, mantiqiy hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan badiiy ishoralarga suyanadi, ya‘ni ba‘zi o‘rinlarda o‘zi tasvirlamoqchi bo‘lgan zamoni boshqa bir vaqt yoki voqega ishora qilish orqali ko‘rsatib beradi.

9. Roman qahramonlarini jinsi, ijtimoiy maqomi, yoshi va gavdalantirgan obrazlari kesimida tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga tasvirli ko‘chirish va obrazli shakllantirilishi, xususan, asar bosh qahramonlarini prototiplar negizida tasvirlashi izquvar, qotil, jabrlanuvchi, guvoh va maslahatchi kabi personajlar tipik kategoriyasi taklif qilindi; Jumladan, Frensis Dolarhayd, Gannibal Lekter va Jeym Gam obrazlari misolida qotil psixologiyasi o‘ziga xos tarzda yorqin aks ettirilgan.

10. Tomas Harris psixologik triller janridagi romanlarida o‘zining voqea-hodisalarni hikoya qilish yo‘sinini, tasvirlash uslubini hamda shaxsiyatiga xos bo‘lgan boshqa muhim xususiyatlarni o‘zaro uyg‘unlashtirib, janriy an‘analarga muayyan yangiliklar kiritadi, bir necha asrlar oldin yaratilgan ijodiy asarlarda ilgari surilgan g‘oyalarning bugungi kundagi ahamiyatini nazarda tutgan holda o‘ziga xos “topilmalar” yasashi tahlil qilindi;

11. Harrisning romanlarida intertekstuallikni namoyon etuvchi tarixiy va badiiy ahamiyatga molik ijod namunalaridan keng ravishda qo‘llanilganligi ushbu birliklar bo‘yicha tetralogiya miqyosida yaxlit tadqiqot olib borish zaruratini vujudga keltiradi. Romanlarda, Jeriko Teodor, Sandro Bottichelli, Donatello singari buyuk rassomlar, Aleksandr Dyuma, T. Eliot, Dante, Jon Don, E. Kammings, Uilyam Bleyk, Frensis Yeyts, Jonatan Spens, Jon Kiardi, Robert va Nikol Pinskilar kabi real tarixiy shaxslarning asarlariga voqea va qahramonlar vaziyati hamda xarakteriga mos havolalar allyuziya ko‘rinishida beriladi. Harrisning Bleyk ijodiga takroran murojaat qilishi Bleykning ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlari bilan yozuvchining fikri mushtarak ekanligini namoyish etadi.

12. Tomas Harrisning shaxsiyati va ma‘naviy dunyoqarashining o‘ziga xos

jihatlari uning uslubiyati bilan uyg'unlashib, asarlarida aks etishi yozuvchi tarjimayi holi hamda iste'dod me'zonining mehnat, saviya, shaxsiyat va sharoit maromlari bilan yaxlitlik kasb etishini isbotlaydi. Yozuvchi o'z dunyoqarashi, konsepsiyasini tetralogiyaning har bir romanida muayyan darajada namoyon etadi. Bu holat qahramon ruhiyatida ham o'z ifodasini topadi.

Umuman, psixologik triller asarlarda qahramon badiiy psixologizmining qanchalar yorqinlik kasb etishi muhim. Zero, insonlar qalbi, ma'naviy va ruhiy olamini yoritishda psixologik asarlarning roli beqiyosdir. Psixologik trillerning o'ziga xos xususiyatlarini, shu bilan birga, yondosh janrlar bilan mushtarak jihatlarni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, tadqiqotlar jarayoniga nafaqat badiiy, balki psixologik va sotsiologik nuqtayi nazardan yondashish va shu orqali insonning ruhiyat cheksizliklarini anglash, olam va odam munosabatlarini ifodalash masalalariga, jamiyatda mavjud dolzarb muammolarga e'tibor qaratish hamda o'rganishlar olib borish har jihatdan ahamiyatlidir. Shularni hisobga olgan holda, adabiyotshunoslikda Tomas Harris trillerlarida psixopatiya, bolalikda olingan ruhiy jarohlarning kelajakdagi salbiy aks-sadosi, Lekter misolida ikki xil qiyofaga ega adabiy qahramonlar tahlili hamda ayol qahramonlarning zamonaviy tasviri va gender notenglik singari masalalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilishini zarur deb bilamiz.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ УЗБЕКСКИЙ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

САМАНДАРОВА СОЖИДА ФУРКАТ КИЗИ

**ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ ГЕРОЯ
В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТОМАСА ХАРРИСА**

**10.00.04 – Язык и литература народов Европы,
Америки и Австралии**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/Fil4599

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков. Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Рузматова Дилноза Раматжановна
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Официальные оппоненты:

Садиков Зоҳид Якубжанович
доктор филологических наук, профессор

Насриддинов Дилшод Азамкулович
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится "4" апреля 2025 г. в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Малой кольцевой дороги, дом 21-А. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за номером 1164). (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Малой кольцевой дороги, дом 21-А. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92)

Автореферат Диссертации разослан "19" марта 2025 года.
(протокол реестра рассылки № 3 от "19" марта 2025 года.



[Handwritten signature]

[Handwritten signature]

[Handwritten signature]

И.М. Тухтасинов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.п.н., профессор

Х.Б. Самигова

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н., профессор

Ж.А. Якубов

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении XX-XXI веков проведение исследований по анализу художественного психологизма и внутреннего мира героев произведений на основе новых подходов приобретает важное значение. Изучение особенностей, социальной и литературно-эстетической значимости психологических романов-триллеров, являющихся относительно новым жанром в литературе, на основе биографических, социологических, психологических принципов психологизма входит в число актуальных задач, стоящих перед современной литературой. В то же время комплексное научно-теоретическое исследование высказанных по ним научно-теоретических взглядов и проблем требует уникального подхода.

В мировой литературе анализ художественного психологизма на основе принципов, соответствующих биографическим, психологическим, социологическим, историко-культурным и герменевтическим методам считается важной задачей науки. Несмотря на то, что психологический метод сформировался в конце XIX - начале XX веков, исходя из приоритета новаторства в условиях глобализации, рассмотрение произведений посредством принципов художественного психологизма рекомендуется литературоведами в качестве ведущего метода анализа. Художественное произведение приобретает совершенство лишь тогда, когда наравне с языковой и стилистической красотой описаны еще и психика образов, характер героев, их внутренние переживания. Ведь любое литературное произведение – это, прежде всего, образец высокого художественного искусства, отражение жизни, образа жизни и духовности людей. При этом, проводя углубленные исследования относительно таких проблем, как совершенствование психологических триллеров и художественный психологизм их героев, а также научно оценивая и составляя выводы о душевном состоянии героя в художественном психологизме и его художественной интерпретации, в частности, появляется необходимость познакомить всё мировое научное сообщество с творчеством американского мастера психологических триллеров Томаса Харриса.

Хотя в узбекском литературоведении уже проводили ряд исследований по таким темам, как художественный психологизм, анализ душевного состояния героев, но в рамках жанра психологического триллера¹ это явление до сих пор отдельно не исследовалось. Ведь в этом типичном для американской и европейской литературы жанре также ведущее место занимает духовный мир художественных образов. В научных исследованиях художественного психологизма, психологическом анализе героев основное внимание уделяется научно-теоретическим критериям этих понятий, психологии исторических лиц, идейно-художественным особенностям художественного психологизма, однако, количество и объём исследований, направленных на изучение художественной

¹ Термин «триллер» происходит от английского слова «thrill», означающего «волнение, удовольствие», и представляет собой жанр художественной литературы и кино. Произведение, вызывающее у читателя чувство тревоги, волнения и паники, характеризуется как триллер.

Источник: Murphy B. The encyclopedia of murder and mystery. – New York: St. Martin's Minotaur, 1999. –P.486.

интерпретации психоаналитического анализа в остросюжетных романах и в профессиональной биографии недостаточны. Большое значение имеет всестороннее изучение, анализирование нововведений в литературоведении, а также появление новых жанров и произведений. Исходя из изложенных соображений, мы считаем целесообразным отдельно изучить вопрос художественного психологизма героя на примере тетралогии Томаса Харриса.

